

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**NIZOMOV RO‘ZIMUXAMMADJON MAXAMMADJON O‘G‘LI**

**“MOLIYA TIZIMINING TARAQQIY ETISHIDA TIJORAT  
BANKLARINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI”**

5230600 – “Moliya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

**Fakultet dekani**

**“Moliya” kafedrasi mudiri**

\_\_\_\_\_ dots. D.R.Rustamov

\_\_\_\_\_ prof. T.S. Malikov

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Bitiruvchi:** 5230600 – “Moliya” ta’lim  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

R.M.Nizomov \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ dots. Alimardonov E.

**TOSHKENT – 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB. MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYAT YURITISHINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. ....</b>	<b>8</b>
1.1. Milliy qonunchilikda tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning ahamiyati va huquqiy asoslari .....	8
1.2. Tijorat banklari faoliyatida xalqaro standartlar va ularning tamoyillari .....	16
1.3. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish mexanizmi .....	25
Birinchii bob bo'yicha xulosa.....	29
<b>2-BOB. MOLIYA TIZIMIDA TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI</b>	<b>31</b>
2.1. Tijorat banklarining aktivlari tarkibi va ularni boshqarish .....	31
2.2. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi tahlili .....	44
2.3. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri .....	53
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	60
<b>3-BOB. MOLIYA TIZIMINI TARAQQIY ETISHIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. ....</b>	<b>61</b>
3.1. Moliya tizmining tarkibiy qismi sifatida tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning mohiyati .....	61
3.2. Tijorat banklari faoliyatini samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	64
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	68
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR .....</b>	<b>69</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>72</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi.** Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor munosabatlarining muhim bog‘inlaridan biri bo‘lgan bank-moliya tizimini yanada takomillashtirish zahirida iqtisodiyotning real sektorlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish yotadi. Iqtisodiyot real sektorlarining samarali ishlashini taminlash avvalo banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bank faoliyatining aniq va samarali olib borilishi butun jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga va aholi daromadlarining o‘shishiga olib keladi. Bank iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi chunki u bozor sub‘ektlari o‘rtasida pul mablag‘larini taqsimlash jarayonini samarali yo‘lga qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli va “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli Qarorlariga asosan, moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, xususan umum qabul qilingan xalqaro me‘yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, moliya tizimida banklarning o‘rnini yanada mustahkamlash hamda bank tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasito‘g‘risida”gi farmoni bank tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Yaqin besh yilga mo‘ljallangan mazkur tarixiy ahamiyatga ega hujjatning uchinchi yo‘nalishida “Bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va faol

diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini isloh etish”<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar bu boradagi keng ko‘lamli islohotlar izchilligiga xizmat qiladi.

Har qanday davlat iqtisodiyoti tayanadigan asosiy ustunlardan biri – barqaror bank tizimi hisoblanadi. Shuning uchun ham ko‘pchilik iqtisodchilar banklarni o‘zi amal qiluvchi mamlakatning qon tomirlariga qiyoslaydilar. Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. Hammamizga ma’limki, 2017-yilda tijorat banklari o‘z faoliyatini valyuta siyosatining liberallashtirilishi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining qat’iylashtirilishi va bank nazorati talablarining yanada kuchaytirilishi, tijorat banklariga, ayniqsa, davlat ulushiga ega banklarga hukumat tomonidan iqtisodiyotni kreditlash bo‘yicha vazifa va talablarning kuchaytirilishi sharoitida olib borildi hamda mazkur omillar bank tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bunday ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarishlardan biri Markaziy bank tijorat banklarining kapitallashuv va likvidlik darajasiga qo‘yilgan talablarni kuchaytirish maqsadida 2017-yil iyun oyidan qayta moliyalashtirish stavkasini 9 foizdan 14 foizga ko‘tarishidir. Shunga qaramasdan hisobot yili davomida tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda tijorat banklarining jami kapitali 2,3 baravar ortdi va 20,7 trillion so‘mga yetdi. Kapitalning yetarlilik ko‘rsatkichi 18,8 foizga oshdi, bu esa xalqaro normalardan 1,8 baravar ortiqdir. Tijorat banklarining jalb qilingan depozitlari umumiy hajmi 1,6 baravar ortdi va 58,7 trillion so‘mni tashkil etdi. Banklar aktivlarining umumiy hajmi 2 baravar ko‘paydi va 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 166,6 trillion so‘mni tashkil etdi va ustav kapitali umumiy miqdori esa 2,8 barobarga oshib, 16,3 trln. so‘mni tashkil etdi. Bunda davlat ulushiga ega banklar kapitali 11,7 trln. so‘mga oshdi<sup>2</sup>. Mazkur yuqori o‘shish ko‘rsatkichlarining

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

<sup>2</sup> 2018-yil 30-mart kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n to‘rtinchi yalpi majlisi ma’lumotlari

shakllanishiga milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi jiddiy ta'sir qilgan bo'lsada, bank tizimi o'sish ko'rsatkichlarining real hisobda ham yuqori bo'lishi banklar moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi"<sup>3</sup>.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida, ya'ni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash davrida turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatida, shu jumladan tijorat banklarida bank nazorati mexanizmini yanada takomillashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Moliya-bank tizimini samaradorligini oshirish banklarda bank nazorati tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

Har qanday mamlakatda bank tizimining mustahkamligi, barqarorligi va ishonchli faoliyat ko'rsatishiga birinchi navbatda davlat manfaatdordir va shu munosabat bilan u tegishli nazorat idoralari orqali bank tizimi ustidan nazoratni tashkil etadi. Respublikamizda tijorat banklari ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi va shu asosida bank tizimini barqarorlashtirish, mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, to'lov intizomini ta'minlaydi, bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz moliya tizimida banklarning rolini mustahkamlashda markaziy o'rinni egallaydi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

---

<sup>3</sup> w.w.w.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti

**Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti.** O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi barcha banklar faoliyati va moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bitiruv malakaviy ishining ob’ekti sifatida olingan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya sektorida tijorat banklari faoliyat olib borilishida vujudga keltirilgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tizimi ishning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi O‘zbekiston Respublikasida moliya tizimini taraqqiy etishida tijorat banklarining rolini oshirish masalalarini o‘rganib chiqqa holda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha bir qancha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

-milliy qonunchilikda tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning ahamiyati va huquqiy asoslarini yoritib berish;

-tijorat banklari faoliyatida xalqaro standartlar va ularning tamoyillarini va ularni tartibga solish mexanizmini o‘rganish;

-moliya tizimida tijorat banklari operatsiyalarining amaldagi holatini tahlil qilish;

-tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni yechimlari yuzasidan nazariy va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan “moliya” fani, “bank ishi” kursini o‘qitishda, shuningdek, respublikamiz moliya-bank tizimini va tijorat banklari faoliyatini tashkil etish amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida moliya tizimini rivojlantirishda

tijorat banklari faoliyat yuritishining nazariy va huquqiy asoslari yoritilgan, ikkinchi bobida moliya tizimida tijorat banklari operatsiyalarining amaldagi holati tahlil qilingan, uchinchi bobida esa moliya tizimini taraqqiy etishida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining mavzuni to‘laroq yoritib berish maqsadida 8 ta jadval va 5 ta rasmlardan foydalanilgan. Bitiruv malakaviy ishi 78 sahifadan iborat.

# **1-BOB. MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYAT YURITISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. Milliy qonunchilikda tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning ahamiyati va huquqiy asoslari**

Bizga ma'lumki, har bir davlat bir-biridan turli xil me'zonlar asosida ajralib turadi, shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak turli mamlakatlarda qonunchilik ham qaysidir ma'noda bir-birini takrorlamaydi. Aynan shu qonunchilik nuqtai nazaridan kelib chiqib iqtisodiy institutlar tashkil etish uchun bir qancha zarur talablar qo'yiladi, xususan O'zbekiston Respublikasida ya'ni milliy qonunchilikda tijorat banklari faoliyatini tashkil etishga nazar tashlab ko'radigan bo'lsak, unda ham biz qator faoliyatni tartibga solib turuvchi me'yoriy-huquqiy normalarni ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sischi o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

Mamlaktimiz milliy qonunchiligida tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ifodalangan bo'lib, shu qonunning 2-bobi "Banklar tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi" deb nomlanan va u o'z ichiga 13 ta modda (7–19 moddalar)ni oladi.

Tijorat banklari respublika hududida o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.



Banklarga litsenziya berish esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qator qonunlar hamda banklar faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshirilishi hech kimga sir emas.

Tijorat banklari faoliyatiga ruxsat berish 1999-yil 11-fevralda qabul qilingan va 2015-yil 14-yanvarda oxirgi o'zgarishlar kiritilgan "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom asosida olib boriladi.

Ushbu nizomda O'zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi hamda shartlari aniq va ravshan qilib belgilab qo'yilgan bo'lib, qonunchilikka muvofiq tijorat banklari aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Banklar tashkil etilgunga qadar quydagi bir necha asosiy bosqichlardan o'tishlari shart<sup>4</sup>:

#### 1. Tayyorgarlik bosqichi

Bu davrda bank muassislari o'rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo'shilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning ta'sis hujjatlari majmuyi tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi, ta'sischi o'rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi va ularning barchasi asosida ta'sis shartnomasi tuziladi. Aksiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro'yxatiga olinganiga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo'ladilar (FKning 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida"gi qonunning 3-moddasi).

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va

---

<sup>4</sup> Abdullayeva Sh. Z. "Bank ishi" o'quv qo'llanma "Iqtisod-moliya" Toshkent : 2017 yil

Jismoniy shaxslar bank muassislari bo'lishi mumkin (chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB bunga yaqqol misol bo'la oladi ).

Har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar. Bu bankning barqarorligini saqlab qolish nuqtai nazaridan belgilib qo'yilgan hisoblanadi.

## 2. Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish bosqichi

Bu bosqichda bank tashkil etish to'g'risidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilinadi. Bunda arizaga zarur hujjatlar ilova qilinishi lozim, ular quydagilar:

- yangi tashkil etilayotgan bankni ta'sis etish bo'yicha hujjat;
- muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi. Ta'sis etuvchilar jismoniy shaxs bo'lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;
- aksiyadorlar yig'ilishida tasdiqlangan va muassislar tomonidan imzolangan bank ustavi (uch nusxada);
- bank tashkil etish haqidagi qaror, ustav kapitalining miqdori va ustavni tasdiqlash, bank kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash haqidagi qarorlarni o'z ichiga olgan bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan ta'sis yig'ilishining bayonnomasi.

Qayd etib o'tilgan hujjatlarning loyihalari Markaziy bankning banklarni litsenziyalash departamenti tomondan ko'rib chiqiladi va mazkur departament hujjatlarni ma'qullaganidan keyingina ular imzolanadi va tasdiqlanadi.

Bulardan tashqari, Markaziy bankka: bank kengashi a'zolari ro'yxati ularning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashkiliy tuzilishi, ichki audit to'g'risidagi nizomi, kredit siyosati to'g'risidagi nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat, tashkil etilayotgan joydagi

Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish mo'ljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishnomaning nusxasi ham topshirilishi lozim.

Bank ustavida bankning to'liq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili, bank operatsiyalarining ro'yxati, maqsadi va faoliyat muddati, ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati, ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimlanishi, ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish tartibi, chiqarilayotgan aksiyalar turlari va soni, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aksiyalarning nisbati, sof foyda va dividendlarni taqsimlash hamda zararlarni qoplash tartibi, zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi, bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari, bankning boshqaruv organlari tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi, bank kengashi, taftish komissiyasi va ijroiya organi a'zolarining soni, vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar, yillik hisobotlarni tuzish, tekshirish va tasdiqlash tartibi, bank auditi, shu jumladan, buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari, bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi, bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish tartibi, shartlari va boshqa ma'lumotlar ko'rsatib o'tilishi shart.

Agarda tijorat bankining joylarda filialini tashkil etishga ehtiyoj tug'iladigan bo'lsa, unday taqdirda ham yuqoridagi hujjatlar (ta'sis hujjatlaridan tashqari) taqdim etilishi zarur bo'ladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda yana bir qator quyidagi hujjatlar to'plamini ham taqdim etilishi talab etiladi:

- tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etilishida ishtirok qilishi haqidagi qarori;
- norezident bankning O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

- bank joylashgan mamlakat bank nazorat organi tomonidan muassis bank faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga egaligi va xususan, qaytarib berish sharti bilan o'z mamlakatida pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga egaligini tasdiqlovchi xat;

- bank nazorati organining muassis bankning o'zi joylashgan va ro'yxatdan o'tkazilgan joyda nazorat ostida ekanligi haqidagi yozma tasdiqnoma;

- muassis bankning oxirgi uch moliya yili uchun tuzilgan, auditorlik firmasi tasdiqlagan yillik hisobotlari, shu jumladan, foyda va zararlar haqidagi konsolidatsiyalangan balansi va hisoboti;

- bank nazorati organi muassis bank tashkil etayotgan bankning ustav kapitalida ishtirok etishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki bunday ruxsatnoma muassis bank mansub bo'lgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab etilmasligining yozma tasdig'i.

Faoliyat yuritib turgan banklar ustav kapitalidagi hissa xorijiy shaxslar tomonidan sotib olinayotganda ham ushbu hujjat xorijiy shaxs tomonidan Markaziy bankka taqdim etilishi lozim bo'ladi.

Bulardan tashqari, keying bir holat ham mavjud, ya'ni xorijiy muassislar O'zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan yoki faoliyat yuritayotgan banklarning ustav kapitalida ishtirok etgan taqdirda:

- xorijiy norezidentning to'lovga qobiliyatligi to'g'risida unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilgan tasdiqnoma;

- O'zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etilishida ishtirok etish uchun mazkur mamlakat nazorat organining roziligi;

- muassis mansub mamlakatning savdo reyestridan ko'chirma yoki yuridik maqomini tasdiqlovchi boshqa muqobil hujjat.

Xorijiy kapital ishtirokidagi banklarda bank kengashining kamida bitta a'zosi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha zarur hujjatlarni talab qilishga haqli bo'ladi. Taqdim etilgan hujjatlar Markaziy bank tomonidan ikki oy muddat ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Markaziy bank bank faoliyati bilan shug'ullanishi uchun dastlabki ruxsatnoma berish masalasini hal etish jarayonida tashkil etilayotgan bank muassislarining moliyaviy imkoniyatlari va nufuziga, bank rahbarligiga taklif etilayotgan shaxslarning kasbiy mahoratiga, biznes va moliyaviy reja ko'rsatkichlariga, tashkil etilayotgan bankning binolar va uskunalari bilan ta'minlanganlik darajasiga ham e'tibor qaratadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, 2017-yilning 1-oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdoriga qoyilgan talab o'zgardi va unga ko'ra holat quydagicha:

- Tijorat banklariga — 100,0 mlrd. so'm;
- Mikrokredit tashkilotlariga — 2,0 mlrd. so'm;
- Lombardlarga — 500 mln. so'm etib belgilandi.

Tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar 2019-yilning 1-yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga keltirishlari zarur. Bunga qo'shimcha ravishda aytib o'tishimiz kerakki, xususiylar uchun bu talab — avvalgidek 5 mln. yevro emas balki, 50 mlrd. so'mdan, boshqa tijorat banklari uchun — 10 mln. yevro emas, 100 mlrd. so'mdan kam bo'lmasligi lozim.<sup>5</sup>

Bank ochilgunga qadar lokal, elektron tarmoq bilan ta'minlangan bo'lishi, dasturiy ta'minotning tarmoq variantining Markaziy bank tomonidan litsenziyalanishi, bank hisob-kitoblar markazi bilan barqaror ishlaydigan alohida aloqa kanali bilan ta'minlanishi, kompyuterlarga, modemlarga, dasturiy ta'minot va texnikani ishlatish bo'yicha ta'lim olgan mutaxassislariga ega bo'lishi shart. Bu esa o'z navbatda bankning keng qo'llanilib kelayotgan texnika-texnologiya yutuqlaridan foydalana olishini ta'minlaydi.

Banklar va ularning filiallari binolarining muhofazasi ta'minlanganligi hamda muhandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyorligi yuzasidan xulosa berish Vazirlar Mahkamasining 2014-

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida 2015-yil 6-iyulda 2693-son

yil 10-martdagi 56-son Qarori bilan tasdiqlangan “Binoning Markaziy bank talablariga muvofiqligi, asbob-uskunalar, kassa uzelinig tayyorligi va dasturiy-texnik vositalar bilan jihozlanganligi to‘g‘risida xulosa berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 49-moddasiga asosan, yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud o‘zaro kelishuv bilan bog‘langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 5 foizdan ortig‘ini olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor qilinishini, 20 foizdan ortig‘ini olish esa oldindan uning roziligini olishni talab qiladi.

Ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo‘lgan aksiyadorlar soni o‘ttiz kishidan kam bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan banklarda kuzatuv kengashi vazifasi bank ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi zimmasiga yuklanishi mumkin.

Aksiyadorlari soni 500 tagacha bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi banklarning kengashi tarkibi kamida besh a‘zodan, aksiyadorlari soni 501 tadan 1000 tagacha bo‘lgan banklarda kamida yetti a‘zodan va aksiyadorlari soni 1000 tadan ortiq bo‘lgan banklarda kamida to‘qqiz a‘zodan iborat bo‘lishi lozim.

Tijorat banki aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilayotgan muassislardan biri yoki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar tomonidan bank aksiyalarining 5 foizdan ortig‘ini sotib olayotgani haqidagi xabar, agar bank aksiyalarining 20 foizidan ortig‘i sotib olinayotganida esa bunga rozilik berishni so‘rovchi iltimosnoma taqdim etilayotgan hujjatlar.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziya olish uchun muassislar oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- litsenziya berish va bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida vakolatlari muassislar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan vakil shaxs tomonidan imzolangan arizani taqdim etilishi;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish uchun berilgan barcha talablarni bajarish;

- barcha tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirishlari, binolar va uskunalarni tayyorlashlari, bank operatsiyalarini avtomatik amalga oshirish maqsadida dasturiy-texnikaviy vositalarni tayyorlashlari, kassa uzelini Markaziy bank talablariga muvofiq tayyor holga keltirishlari;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan miqdorda ustav kapitalini to'lashlari va ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishlari;

- bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida, filiallar ro'yxatga olinayotganida esa ushbu mablag'ning yarmi miqdorida haq to'lanishi, ustav kapitalining 30 foizidan ortig'i xorijiy shaxslarga tegishli bo'lgan banklar va shu'ba banklarini ro'yxatdan o'tkazishda 5000 AQSh dollariga teng summada haq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdimetilishi lozim.

Bankni ro'yxatdan o'tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish masalasi Markaziy bank talab qilgan barcha hujjatlar to'liq taqdim etilgan va tegishli talablar bajarilgandan keyin bir oy ichida hal etilishi kerak. Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga eg bo'ladilar.

Litsenziya berishdan oldin Markaziy bank arizachilarga bank tashkil etish sohasidagi faoliyatlarini davom ettirish imkonini beradigan dastlabki ruxsatnomani beradi.

Dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan uch oy ichida qabul qilinadi va muassislarning moliyaviy imkoniyatlarini hamda obro'sini, bank rahbarligiga taklif etilayotganlarning kasb malakalarini, biznes-rejani, moliyaviy rejani, kapitalning tuzilishini, tegishli bank binolari va uskunalalar bilan ta'minlash imkoniyatlarini baholashga asoslanadi. Muassislar bank tashkil etish uchun dastlabki ruxsatnomani olganlaridan keyin litsenziya olish hamda bankni davlat

ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnikaviy talablarni bajaradilar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan dastlabki ruxsatnoma bir yil davomida yuridik kuchga ega bo'lib, muassislar ushbu vaqt ichida barcha tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishlari va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazishni yakunlashlari lozim.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari lozim. Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish yuzasidan qaror qabul qilishda bank biznes rejasining maqbulligiga, bank kapitalining adekvatligiga, daromadlikning kelgusidagi istiqbollariga, ko'zda tutilayotgan rahbarning malakasi va obro'-e'tiboriga, bankni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligiga e'tibor beriladi.

Tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida davlat ro'yxatidan o'tgandagina tashkil etilgan deb hisoblanadi va yuridik shaxs statusini oladi.

Banklar tomonidan chet elda o'z filiallari, vakolatxonalari va shu'ba banklarini ochish hamda banklarni tashkil etishda qatnashish uchun Markaziy bankning ruxsatnomasini olish Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 10-martdagi 56 son qarori bilan tasdiqlangan "bank faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, bank kengashi, bankning ijroiya organi, ya'ni bank boshqaruvi bankning boshqaruv organi hisoblanadi.

## **1.2. Tijorat banklari faoliyatida xalqaro standartlar va ularning tamoyillari**

Ma'lumki, hech qanday iqtisodiy tuzum yoki moliyaviy institutlar o'z faoliyati jarayonida umumqabul qilingan xalqaro andoza va normalarni chetlab o'ta olmaydi. Shunga bo'lsa kerak hech birimiz o'z qobig'oga o'rlaib olib



rivojlangan yoki rivojlanayotgan mintaqa yoki mamlaktni uchratmaymiz. Biz o‘ylaymizki, shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, tijorat banklari ham o‘z faoliyati davomida samaradorlikni, unumdorlikni va barqarorlikni iloji boricha yuqori darajada saqlab qolish uchun xalqaro standartarga rioya qilgan holda faoliyat ko‘rsatadi va ular faoliyati doimo tartib ostida ushlab turiladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarda ham bank-moliya sektori jiddiy ravishda davlat tomonidan tartibga solinadi. Bu yerda, banklarni tartibga solish yuzasidan jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqib “2018-yilning 1-apreligacha banklarni ilg‘or amaliyot va xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritadigan moliyaviy barqaror va raqobatdosh muassasasiga sifatli transformatsiya qilishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash”<sup>6</sup> tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan tavsiya etilgan edi.

Biz mamlaktimiz bank-moliya tizimini tahlil qilib o‘rganganimizda, shunga guvoh bo‘ldikki, bank tizimida qo‘llanilib kelayotgan barcha milliy va xalqaro me‘yorlarning tijorat banklari faoliyatida o‘z muhumlik darajasi va har birining alohida-alohida vazifasi bor ekan. Bular tijorat banklarining yuqori daromadlilikini saqlab qolishdan tashqari, faoliyat ustidan nazorat qilish imkonini berish kabi ko‘plab xususiyatlarga egadir.

Quyida o‘sha yuqorida aytib o‘tgan iqtisodiy me‘yorlarning ba’zilariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1) “Umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti” K1 quyidagicha hisoblanadi:

$$K1 = \text{bank kapitali} / \text{riskni hisobga olib hisoblangan aktivlar}$$

K1 ning minimal ruhsat etilgan darajasi 2018-yilning 1-yanvaridan ushbu ko‘rsatkich 0,125 (12,5foiz) tashkil etadi. Bazel qo‘mitasining tavsiyasi 0,08 (8%).

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da 2017-yil 12-sentyabr, PQ-3270-son

2) I darajali kapitalning yetarlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K2 = \text{I darajali kapital} / \text{riskni hisobga olib hisoblangan aktivlar}$$

K2 ning minimal ruhsat etilgan darajasi 2018-yilning 1-yanvaridan 0,95 (9,5foiz) ni tashkil etadi.

3) Kapitalning yetarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari nomoddiy aktivlar va gudvill chegirib tashlangan I darajali kapitalning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

$$K3 = \text{I darajali kapital} / (\text{umumiy aktivlar} - \text{nomoddiy aktivlar} - \text{gudvill})$$

Leveraj koeffitsientining minimal ruhsat etilgan darajasi 0.06 ga teng (6 foiz).<sup>7</sup>

4) joriy likvililik koeffitsienti K4 quyidagicha hisoblanadi:

$$K4 = \frac{\text{likvid aktivlar va 30 kun mobaynida qaytishi kerak bo'lgan aktivlar} / \text{talab qilib olguncha majburiyat va 30 kun mobaynida so'ndirilishi lozim bo'lgan majburiyatlar}}$$

K4 me'yorning eng kam miqdori 0,3 (30%).(1-jadvalga qaralsin)

5) Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim tijorat banklari yuqori daromadni ko'zlagan holda talab qilib olgunga qadar va qisqa muddatda qo'yilgan omonatlar hisobidan kredit berish va boshqa aktiv operatsiyalarga uzoq muddatli tartibda joylashtiradilar. Jalb etilgan mablag'larning muddati kelgan paytda esa bank omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini muddatida bajarish imkoniga ega bo'lmaydi. Bank operatsiyalarini bajarish bo'yicha litsenziyasi tortib olingan banklar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bir qarz oluvchiga va muassisga, bank aksiyadorlariga moliyaviy jihatdan bankning qurbi yetmaydigan darajada katta miqdorda kreditlar berilishi tijorat banki uchun juda xatarlidir. Shuning uchun, bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi I darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak (K5).

---

<sup>7</sup> "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda tijorat banklari likvidligiga hamda kapital yetarliligiga qo‘yilgan talablarning kuchga kirish sanasini ko‘rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**O‘zbekistonda tijorat banklari likvidligiga hamda kapital yetarliligiga qo‘yilgan talablarning kuchga kirish sanasi<sup>8</sup>**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Kuchga kirish sanasi</b>				
	<b>01.09.2015</b>	<b>01.01.2016</b>	<b>01.01.2017</b>	<b>01.01.2018</b>	<b>01.01.2019</b>
<b>Regulyativ kapital, (K1)</b>	10%	11,5%	12,5%	12,5%	13%
<b>I darajali kapital, (K2)</b>	7,5%	8,5%	9,5%	9,5%	10%
<b>I darajali asosiy kapital</b>	6%	7%	7,5%	7,5%	8%
<b>Leveraj koeffitsienti, (K3)</b>	6%	6%	6%	6%	6%
<b>Joriy likvidlik koeffitsienti, (JLK)</b>	30%	30%	30%	30%	30%
<b>Likvidlilikni qoplash me‘yori koeffitsienti, (LQMK)</b>	-	80%	90%	100%	100%
<b>Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori koeffitsienti, (SBMMK)</b>	-	-	-	100%	100%

6) Ishonchli kreditlar uchun tavakkalchilikning eng yuqori darajasi I darajali

<sup>8</sup> “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom 2015 yil 13 iyundagi 14/3–son

bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur (K6).

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash lozimki, bank uchun yirik toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar summasini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari summasidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

7) Bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi I darajali bank kapitalidan 8 martadan ortiq oshib ketishi mumkin emas (K7).<sup>9</sup>

8) Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni xarid qilish (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) va yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etishda quyidagilarga rioya etishlari shart:

Bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga, shuningdek ushbu yuridik shaxsning boshqa qimmatli qog'ozlariga kiritgan investitsiyalari miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 15% dan oshmasligi kerak (K8).

9) Bankning yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 50% dan oshmasligi kerak (K9).

10) Oldi-sotdi uchun qimmatli qog'ozlarga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori I darajali bank regulyativ kapitalining 25% dan oshmasligi kerak (K10).<sup>10</sup>

11) Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning yana bir muhim sohalaridan biri bog'liq shaxslar bilan bank operatsiyalarini o'tkazish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga asosan bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bankka bog'liq bo'lmagan shaxslarga nisbatan qulayroq shartlar asosida bitim tuzishni taqiqlaydi va Markaziy bankka bunday bitimlar bo'yicha cheklashlar belgilash yuzasidan vakolatlar berilgan.

Bankning asosiy aksiyadorlari, uning rahbarlari, xodimlari va ular bilan bog'liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkachilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi Nizomi, 02.12.1998, 557-son

<sup>10</sup> "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom, 2009, 1894-son

amaldagi qonunlarga rioya qilishlari kerak.

Bankka daxldor shaxslarga beriladigan bitta kreditning umumiy hajmi bir yoki o‘zaro daxldor qarz oluvchilar guruhiga beriladigan bitta kredit tavakkalchiligining maksimal miqdoriga nisbatan tartibga solinadi (K11).

12) Bir yoki o‘zaro daxldor shaxslar guruhiga berilgan ta’minlanmagan kreditlarning eng yuqori darajasi I darajali bank kapitalining 5% dan oshmasligi zarur (K12).

13) Bankning barcha daxldor shaxslarga bergan kreditlarining umumiy summasi bankning I darajali (asosiy) kapitalining 100% dan oshmasligi kerak (K13).

Tijorat banklari yuqorida sanab o‘tilgan iqtisodiy me’yorlarning belgilangan miqdoriga har doim amal qilib borishni ta’minlashlari uchun quyidagi sohalarda ishni samarali tashkil etishlari lozim:

- bank portfelini yaxshilash;
- bank amallari bilan bog‘liq xatarlarni kamaytirish;
- bank balansi likvidligini ta’minlash;
- o‘z sarmoyasining adekvatligini ta’minlash;
- zararlar o‘rnini qoplash zahirasi vujudga keltirish.

Yuqoridagi iqtisodiy normativlarni ishlab chiqishda milliy bank tizimining rivojlanishidagi ayrim muhim xususiyatlar hisobga olingan holda Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan normativlardan keng ko‘lamda foydalanilgan.

Iqtisodiy me’yorlarning belgilangan miqdorlariga amal qilmagan banklarga nisbatan Markaziy bank tomonidan jarimalar solish va boshqa tegishli iqtisodiy jazo choralarini ko‘rib boriladi. Chunki tijorat banklari faoliyatini bir maromda barqarorligini saqlab turish deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy normativlarni belgilashdan asosiy maqsad tijorat banklarining to‘lovga noqobil bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik va shuning asosida banklarning mijozlarini, vakil banklarni himoya qilish hisoblanadi. Bu harakatlar esa o‘z navbatida mamlakatdagi moliya tizimini bir tekis, uzilishsiz

faoliyat yuritishiga keng zamin yaratadi. Zero, mamlakatda mavjud pul massasini salmoqli qismi tijorat banklarida to‘planadi va ularning boshqarilish taqdiri ham tijorat banklarining o‘zida bo‘ladi, shu nuqtai nazardan, agar banklar pul vositalarini samarali boshqaradigan bo‘lsalar demak, iqtisodiy tizim ham sog‘lom tarzda rivoj topadi. Xalqaro maydongana nazar tashlaydigan bo‘lsak unda Bazel qo‘mitasi o‘z standartlari bilan mashxur va barcha banklar ularning andozalariga mos ravishda faoliyat yuritishga harakat qiladi. Bu qo‘mita o‘z faoliyatini 1988-yildan “Kapitalni baholashning xalqaro bir xillastirish (konvergenstsiya) va standartlar” (Bazel I)<sup>11</sup> asosiy talablarini yaratishdan boshlagan. Bugungi kunga kelib esa, zamonlar o‘zgarishi bilan talablar ham o‘zgarimoqda va natijada Bazel III talablari (2010-yil) ham yaratildi.

Bazel III standartlarining ikkita asosiy maqsadi mavjud:

- Yanada barqaror bank tizimini shakllantirish maqsadida bank kapitali va likvidligini boshqarish bo‘yicha xalqaro me‘yorlarni takomillashtirish;
- Bank sektorining moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatini yaxshilash, pirovardida bunday muammolarni iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan real sektoriga o‘tish tavakkalchiligini kamaytirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun Bazel III standartlari quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha bo‘linadi:


1. Kapitalni isloh qilish (shu jumladan, kapitalning sifat va miqdori, barcha tavakkalchiliklarni inobatga olish, qarz yuki koeffitsientini, konservatsiya va kontrsiklik bufer kapitali tushunchalarini joriy etish);
2. Likvidlilikni isloh qilish (qisqa va uzoq muddatli);
3. Moliyaviy tizimni barqarorligini takomillashtirishga qaratilgan boshqa elementlar.

Xalqaro maydongana nazar tashlaydigan bo‘lsak unda Bazel qo‘mitasi o‘z standartlari bilan mashxur va barcha banklar ularning andozalariga mos ravishda faoliyat yuritishga harakat qiladi

---

<sup>11</sup> Basel Committee on Bankig Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Standards. July 1988. Bank for International Settlements. <http://www.bis.org/bcbs/index.htm>

Bazel III standartlari 2019-yilgacha bosqichma-bosqich joriy qilinishi belgilangan (1-rasmga qaralsin).



**1-rasm. Bazel III standartlaridagi kapital yetarliligiga qo'yilgan talablari<sup>12</sup>**

Diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki, yangi talablarga ko'ra, I darajali kapitalning yetarlilik darajasi 6 foizni (shu va kapitalga oid boshqa ko'rsatkichlar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan hisoblanadi), shu jumladan, to'langan oddiy aksiyalar yoki I darajali asosiy kapital ko'rsatkichi (chegirmalardan keyin) 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozim. Bunda I darajali asosiy kapital ko'rsatkichi 2013 yilgacha 2 foiz, 2013 yildan 3,5 foiz, 2014 yildan 4 foiz va 2015 yildan 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozimligi belgilangan va o'zgarmas qolmoqda. Bundan tashqari, Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan "Bufer kapitali" deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o'ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda. Kontrsiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi. Banklar kontrsiklik kapitalga 2016 yildan boshlab ega

<sup>12</sup> Basel Committee on Bankig Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Standards. July 1988. Bank for International Settlements. <http://www.bis.org/bcbs/index.htm>

bo'lishlari va uning miqdori 2016 yildan 0,625 foiz, 2017 yildan 1,25 foiz, 2018 yildan 1,875 foiz va 2019 yildan 2,5 foiz bo'lishi talab qilinmoqda. Ushbu talabni 2,5 foizga yetkazmagan banklarga dividendlar to'lash, o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish hamda bonuslar to'lashga cheklovlar o'rnatiladi.

Demak, Bazel III ga ko'ra, banklar regulyativ kapitali ko'rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablar yig'indisidan iborat bo'ladi.(2-jadvalga qaralsin)

## 2-jadval

### Bank kapitali tarkibining (Bazel III talablariga ko'ra) yangi ko'rinishi<sup>13</sup> (tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)

	Jami to'langan (oddiy) aksiyalar (chegirmalardan keyin)	I darajali bank kapitali	Jami regulyativ kapital
Minimal talab	4,5	6	8
Konservatsion bufer kapitali	2,5		
Minimal talab + Konservatsion bufer kapitali	7	8,5	10,5
Kontrsiklik bufer kapitali	0-2,5		

Bazel III bilan banklar likvidligiga ham ikkita yangi talab kiritilmoqda. Birinchisi — bu 30 kungacha bo'lgan joriy majburiyatlarning likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishini nazarda tutuvchi talab. Ushbu normativni hisoblashda inobatga olinadigan aktivlar sifatiga bo'lgan talablar kuchaytiriladi. Jumladan, likvid aktivlar sifatida baholanadigan qimmatli qog'ozlar reytingiga yanada yuqori

<sup>13</sup> “Bozor, Pul va Kredit” 2017-yil IV chorak yakunlari №165 ,8-bet



talablar belgilanadi.

Ikkinchi normativ — uzoq muddatli likvidlik normatividir. Bankning normal faoliyati doirasida uning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100 foizga ta'minlangan bo'lishi shart.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan davlatlar amaliy tajribasiga ko'ra, bank tizimining samarali va erkin faoliyat ko'rsatishi uchun yuqorida qayd etilgan har ikkala pul-kredit hamda iqtisodiy me'yorlar usullaridan o'zaro aloqadorlikda samarali foydalanish talab etiladi.

### **1.3. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish mexanizmi**

Mamlakatda tijorat banklarining qoniqarli faoliyat ko'rsatmasligi, bank tizimi holatining yomonlashuvi nafaqat ushbu davlatda, balki uning chegaralaridan tashqarida ham moliyaviy barqarorlik uchun yaqqol xavfni yuzaga keltiradi. Buni hozirgi umumjahon globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va uning hayotni hamma jihatlarini qamrab olayotgan bir paytda yaqqol sezish mumkin. Shu sababli, hozirgi paytda bank va moliyaviy tizimlarining barqarorligiga erishish va mustahkamlash muammosi katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, Markaziy (emissiya) bank hamda ko'p tarmoqli tijorat banklarni o'z ichiga olgan 2 pog'onali bank tizimining samarali faoliyatini yo'lga qo'ymasdan, har qanday davlat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash va uni yuksaltirishga erishish mumkin emas.

Mazkur ikki pog'onali bank tizimining birinchi pog'onasida mamlakat Markaziy (milliy) banki o'rin olib, u milliy valutaning barqarorligini ta'minlash, emissiya faoliyatini amalga oshirish, mamlakat pul muomalasi va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, Markaziy bank davlatning boshqa mas'ul organlari bilan birgalikda mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, bank va moliya tizimi mustahkamligini ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirib boradi.

Ikkinchi pog'onada tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari o'rin

egallaydilar. Kredit muassasalari o'z faoliyatida avvalambor, tijorat asosida jismoniy va yuridik shaxslar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, ulardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan o'z tavakkali hisobiga kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish hamda to'lovlarni amalga oshirish kabi faoliyatni amalga oshiradilar.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdan asosiy maqsad bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish, bank kreditlari qaytmasligini va zarar ko'rishini oldini olishdir. Chunki, ssuda kapitallari, shu jumladan bank kreditlari holati va istiqboli milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, yuqori darajadagi bandlik, barqaror baholarni ta'minlash har bir davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga mamlakat tomonidan har tomonlama puxta o'ylangan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish natijasida erishish mumkin. Pul – kredit siyosati, baho siyosati, budget siyosati, muvozanatlashgan to'lov balansiga erishish, ish haqi va bandlik siyosati makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Pul – kredit siyosati barcha davlatlarda Markaziy bank (ko'pgina davlatlarda u milliy bank, aqshda esa federal rezerv tizimi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish – bu vakolatli davlat organi tomonidan qonunchilikka asosan bank ishi yuritish tartibi va uslublari yuzasidan aniq qoida va yo'riqnomalarni shakllantirish va ishlab chiqish tushuniladi. Mazkur qoida va yo'riqnomalar barcha tijorat banklari uchun majburiy hisoblanadi.

Bank faoliyatini tartibga solish mexanizmining vujudga kelishi hamda uning rivojlanish jarayonlari 1864-yilda aqshda qabul qilingan “Milliy bank akti to'g'risida”gi qonun bilan bog'liqdir.<sup>14</sup> Shunga bo'lsa kerak, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa rivojlangan davlatlarda bank faoliyati sohasidagi davlat siyosati iqtisodiyotdagi moliyaviy beqarorliklarga barham berish, yalpi pul taklifi

---

<sup>14</sup> Антонов Г.М., Былинкина В.С. и др. Банковский портфель-2. – М.: Соминтэк, 1994. – с. 405

ustidan nazorat oʻrnatish, banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini taʼminlash va bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuygʻularini yuzaga kelishiga yoʻl qoʻymaslik kabi maqsadlarni koʻrish mumkin.

Davlat banklar faoliyatini tartibga solishni quyidagi usullarda amalga oshiradi:

- tijorat banklari manfaatlarini amalga oshirish imkonini beruvchi qonunchilik va boshqa sharoitlarni yaratish;

- muomaladagi pul massasining umumiy hajmi va tarkibiga taʼsir koʻrsatish orqali tijorat banklarining iqtisodiyotga kredit sifatida yoʻnaltiradigan mablagʻlariga pul-kredit siyosati vositasida taʼsir etish;

- banklarning toʻlovga qobilligini taʼminlash uchun iqtisodiy meʼyorlar belgilash va ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish.

Har qanday davlat banklarni tartibga solishdan oʻz oldiga 2 ta vazifa qoʻyadi:

1. Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish;
2. Bank tizimini kafolatlash, iqtisodiy oʻsishiga yordamlashish.

Dunyodagi barcha rivojlangan davlatlarda Markaziy bank tijorat banklar faoliyatini 2 xil usulda: 1) davlatning pul-kredit siyosatini yuritish; va 2) iqtisodiy meʼyorlar asosida tartibga soladi va mamlakatning moliyaviy barqarorligi va makroiqtisodiy koʻrsatkichiga bevosita taʼsir etadi.

Oʻzbekiston respublika Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining balans likvidligini doimo taʼminlab borishi yoki ularning oʻz oldilaridagi majburiyatlarini oʻz muddatida amalga oshirishlariga erishish, omonatchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tijorat banklari faoliyatini tartibga solib turish uchun iqtisodiy meʼyorlar (normativlar) oʻrnatildi. Oʻtgan asr oxiriga kelib iqtisodchilar Markaziy banklar tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatining bir qismi boʻlgan monetar siyosatni davlat umumiy moliyaviy siyosatining davomi ekanligi toʻgʻrisida xulosaga kelishdi.

Davlat Markaziy banklar yordamida tijorat banklari faoliyatini toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatmalar (bevosita - maʼmuriy) yoki bilvosita tartibga soladi, ular

Hozirgi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga ko'ra esa iqtisodiyotga davlat aralashuvining keskin darajada qisqartirish va uning huquqiy asoslarini yaratish moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirish, barqaror pul-kredit tizimini rivojlanishiga imkoniyat tug'diradi.

Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, yuqori darajadagi bandlik, barqaror baholarni ta'minlash har bir davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga mamlakat tomonidan har tomonlama puxta o'ylangan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish natijasida erishish mumkin. Pul – kredit siyosati, baho siyosati, budget siyosati, muvozanatlashgan to'lov balansiga erishish, ish haqi va bandlik siyosati makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Pul – kredit siyosati barcha davlatlarda Markaziy bank (ko'pgina davlatlarda u milliy bank, aqshda esa federal rezerv tizimi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunish mumkinki, banklarning banki bo'lmish Markaziy bank tijorat banklarini faoliyatini tartibga solishda markaziy apparatning yodamiga tayanib ish ko'radi. Ko'rib turganimizdek, markaziy apparat bo'linmalari nazoratning barcha jabhalarini qamrab oladi. Markaziy bankning tijorat banklarini ro'yxatga olish, litsenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish, ya'ni bank nazorati borasidagi siyosat bank tizimining barqarorligini saqlash, bank tizimida haqiqiy raqobat muhitini yaratish va yangi moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan banklarning bozorga kirishini nazorat etish yo'llaridan biridir. Banklarni litsenziyalash jarayonini takomillashuvi avvalambor litsenziyalash standartlarini, ya'ni bank muassislarining moliyaviy ahvoli, bank rahbarlari malakasi va obro'siga qo'yiladigan talablarni oshirishdan iboratdir. Shuningdek, banklar tomonidan o'z kapitalini yetarliligini ta'minlanishi, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishi, iqtisodiyotning real sohasiga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari o'sishini va tavakkalchilikni oqilona diversifikatsiyalashni ta'minlanishi, kreditlar berish shartlarini, shuningdek, bank kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya

qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilinishi banklar faoliyatini tartibga solishning mohiyatini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, butun bank tizimini barqarorligini ta'minlash, alohida olingan bank uchun esa, u duch kelishi mumkin bo'lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish yuzasidan eng to'g'ri yo'lni ko'rsatish, omonatchilar va kreditorlarning mablag'laridan foydalanayotgan banklar tomonidan qay darajadagi riskli operatsiyalar bajarilayotganligini nazorat qilish va tartibga solish hamda bu orqali, oxir oqibatda, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilish Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini tartibga solishning muhim iqtisodiy mohiyatini tashkil etadi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Mamlakatimiz moliya tizimini rivojlanishida tijorat banklari faoliyat yuritishining nazariy va huquqiy asosi sifatida milliy qonunchilikda yaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni keltirishimiz mumkin. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan bunday asoslar tijorat banklari faoliyatida yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi. Buni biz tijorat banklari faoliyatini tashkil etish, faoliyatini tugatish va faoliyatini tartibga solish jabhalarida yaqqol ko'rsihimiz mumkin.

Mamlakatimiz milliy qonunchiligida tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ifodalangan va bu qonun o'z navbatida faoliyatni qanday olib borishni ham tartibga solib turuvchi hujjat bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari o'z faoliyati davomida xalqaro standartlarni chetlab o'tmaydi, zero, umum qabul qilingan xalqaro me'yorlar milliy qonunchilik uchun baza sifatida xizmat qiladi.

Har bir tizim faoliyati hamma vaqt nazorat ostida bo'lgan shu nuqtai nazardan banklar faoliyati ham banklarning banki bo'lmish Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turiladi. Bundan ko'zlangan maqsad esa tijorat banklari barqarorligini saqlash, ularning likvidligini oshirish hamda mamlakatda optimal pul- kredit siyosatini yuritish orqali davlatning to'lov balansini samarali boshqarish

hisoblanadi. Bulardan tashqari narx siyosati, ish bilan bandlik va inflatsiyaning boshqaruvi richagining bir qismi ham Markaziy bank va tijorat banklari qo‘lidadir. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdan yana ko‘zlangan asosiy maqsadlardan bir bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish, bank kreditlari qaytmasligini va zarar ko‘rishini oldini olishdir. Chunki, ssuda kapitallari, shu jumladan bank kreditlari holati va istiqboli milliy iqtisodiyot va moliya tizimi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## **2-BOB. MOLIYA TIZIMIDA TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Tijorat banklarining aktivlari tarkibi va ularni boshqarish**

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bogʻliq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash va bu jarayonlarni boshqarib borish muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qaroriga ilova qilingan.

“Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga asosan taʼriflanadi va tasniflanadi. Mazkur nizomda aktivlar — kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qogʻozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablagʻlar, boʻlib-boʻlib toʻlash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bogʻliq barcha boshqa talablar sifatida taʼriflanadi.

Bank aktivlari tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmogʻi tushuniladi. Tijorat banklari aktivlarini asosan toʻrt kategoriyaga boʻlib oʻrganish mumkin.

Bular:

- kassadagi pul mablagʻlari va ularga tenglashtirilgan mablagʻlar;
- investitsiya va qimmatli qogʻozlar;
- kredit va ssudalar;
- binolar va asbob-uskunalar.

Bank aktivlari – bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega boʻlgan qiymatliklar, naqd mablagʻlar, qarzga berilgan mablagʻlar, binolar va asbob-uskunalaridan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud boʻlib, bular oʻzlarining moddiy shakliga ega boʻlmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bank aktivlari tarkibining toʻgʻri

belgilab olinishi va ulardan maqsadli foydalanish banklarning samarali faoliyat olib borishiga asos hisoblanadi.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga ko'ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Banklar amaliyotida aktivlar bank balansida likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga: yuqori likvidli aktivlar, likvidli aktivlar, nolikvid (past likvidli) aktivlarga bo'linadi.

1-guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

a) naqd pullar, sof quyma oltin, qimmatli toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;

b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisob varag'idagi mablag'lar;

d) bankning boshqa banklarda ochilgan hisob varag'idagi mablag'lar;

e) majburiy zaxira hisob varag'i bo'yicha mablag'lar qoldig'i;

f) qisqa muddatli (7 kungacha) banklararo kreditlar va depozitlar;

g) xalqaro reyting kompaniyalari yuqori baho bergan, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlar transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari.

2-guruh - likvid aktivlar. Bularga:

a) berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);

b) o'z investitsiyalari;

d) boshqa qimmatli qog'ozlar, muddati 30 kungacha bo'lgan debitorlar.

3 guruh - nolikvid (past likvidli) aktivlar. Bularga:

a) muddati o'tgan ssudalar;

b) muddati o'tgan foizlar;

d) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;

e) tugallanmagan ishlab chiqarish;

f) asosiy vositalar kiradi.

Mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida aktivlar likvidliligi ta'minot likvidliligiga qarab baholanadi. Lekin ta'minot kredit to'lashning ikkilamchi manbayi hisoblanadi. Aslida beriladigan kredit korxonada moliyaviy holatining



barqarorligiga, kredit obyektini bo'lgan tovar-moddiy boyliklar, xizmatlar, investitsiyalarning daromadlilik darajasiga bog'liq. Shu bois, tijorat banklari ta'minotga kreditni qoplashning asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim.

Amaliyotimizda bank aktivlari ta'minotning likvidlilik darajasiga qarab 2 guruhga bo'linadi. Bular:

- yuqori likvidli ta'minotga ega bo'lgan aktivlar;
- yuqori likvidli bo'lmagan ta'minotli aktivlar.

Aktivlarning yuqori likvidli ta'minotiga:

- tijorat banklarida ochilgan hisob varaqlardagi milliy va xorijiy valyuta shaklidagi garov;
- hukumatning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;
- Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;
- qimmatbaho metallar shaklidagi oltin va kumush quymalari shaklidagi garov kiradi.

Aktivlarning yuqori likvidli bo'lmagan ta'minotiga:

- ko'chmas mulk, shu jumladan, yer uchastkasiga bo'lgan huquq;
- ko'char mol-mulk;
- xo'jalik jamiyatidagi ulushga bo'lgan huquq;
- ba'zi bir qimmatli qog'ozlar shaklidagi garov;
- yuridik va jismoniy shaxslarning kafolat va kafilliklari kiradi.

Ta'minotni tahlil qilishda tijorat banklari tomonidan uning likvidliliigi e'tiborga olinishi lozim. Bunda tijorat banki ta'minotni sotishdan asosiy qarz va foiz summalarining qaytarilishini baholashi shart.

Bank doimiy tarzda o'zining likvidliliğini ma'lum bir darajada saqlashi kerak, ya'ni o'zining to'lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Bankning aktivlari qanchalik darajada likvid bo'lsa shunchalik, ular bilan bog'liq risk kichik bo'ladi, ammo shunga javoban ularga to'lanadigan foiz ham shunchalik past bo'ladi.

Bank likvidlilikni ikki xil yo'l bilan ta'minlash mumkin:

- ortiqcha likvidli aktivlarni yig'ish orqali;

- jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan usul – likvidlikni kam daromad keltiruvchi va tez sotiluvchi qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash orqali ta'minlash mumkin.

Kassadagi pul mablag'lari – bankning kassasidagi saqlanayotgan va bank kunlik hisob raqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va tangalar hisoblanadi. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirishda beriladigan qog'oz pullarga va tangalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi, jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi v.b. odatda, jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo'limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar qo'shiladi, chunki bu mablag'lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu mablag'larni bankda "Birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, chunki mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

Tijorat banki aktivlarining sifatini baholashda qarz oluvchining faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshiriluvchi va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidligining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;
- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Aktivlar sifatining tahlili va tasnifi natijalari yuqorida keltirilgan mezonlar tijorat banklarining kredit portfeli va boshqa aktivlaridagi risk darajasini aniqlash va baholashda qo'llaniladi.

Bank aktivlari tarkibida birinchi darajali likvidli aktivlar hissasi qanchalik ko'p bo'lsa, bank likvidligi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi.

Risklik darajasiga qarab aktivlar, odatda, to'rt guruhga bo'linadi.

1-guruh - riskdan xoli bo'lgan aktivlar. Bularga: naqd pullar va turli kassa hujjatlari, chet-el valyutasi, Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quyilmalar, Markaziy bankning vakillik va zaxira hisob varaqlaridagi mablag'lar. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy bankiga bo'lgan talablar va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, nomoddiy aktivlar v.b.

2-guruh - kichik (minimal) riskli aktivlar. Bularga: boshqa banklarning vakillik hisob varaqlaridagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar, qarzlilar, pul bozori vositalari, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlar banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan barcha aktivlar, xalqaro moliya tashkilotlariga bo'lgan talablar, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan muamalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar, O'zbekiston Respublikasi hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, risk darajasi past bo'lgan mamlakatlar hukumati tomonidan chiqarilgan bozor qiymatida baholangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan aktivlar va balansdan tashqari majburiyatlilar, hisob-kitoblilar jarayonida bo'lgan pul hujjatlilar va boshqalar kiradi. Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 foizga teng.


3-guruh - yuqori riskli aktivlar: jismoniy shaxslarga uy-joy sotib olish va qurish uchun berilgan va garov bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda kreditning miqdori garov qiymatining 60 % dan oshmasligi lozim. Bu aktivlar bo'yicha risk 50 foizga teng.

4-guruh - yuqori darajadagi riskli aktivlar: banklar tomonidan berilgan barcha kreditlar, bankning asosiy vositalari va boshqa mulklilar, foiz o'stirmaslik maqomi berilgan va qayta ko'rib chiqilgan kreditlar, bankda dastlabki garov huquqiga ega bo'lmagan kreditlar, milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshgan aktivlar, risk darajasi past

bo'lgan mamlakatlarning depozitar institutlari kapitali bo'lgan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi aktivlarning risk darajasi 100 % ni tashkil qiladi.

5-guruh - o'ta yuqori (maksimal) riskli aktivlar: bu aktivlarga sud jarayonidagi va belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar, qarzni to'liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko'chmas mulklar, ikki yildan ko'p muddatga foydalanilmayotgan bank bino inshootlari, muddati bir martadan ortiq uzaytirilgan va shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar. Ushbu guruhdagi aktivlarning risk darajasi 150 % miqdorida belgilanadi.

Tijorat bankining balans ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2018-yil 1-yanvarda bank tizimi umumiy aktivlari 166 632 mlrd so'mni tashkil qildi. Shundan 14 foiz (ya'ni 23 328 mlrd so'mni) riskdan xoli bo'lgan aktivlar, 68 foiz (113 310 mlrd so'm) kam riskli aktivlar, 1 foiz (1 666 mlrd so'm) esa katta riskli aktivlarni, maksimal darajali riskli aktivlar 17 foizni tashkil qiladi. (3-rasm)



**3-rasm. Tijorat banklari jami aktivlari qoldig'i dinamikasi<sup>15</sup>**

Yuqoridagi tahliliy diagrammadan yana shuni ko'rishimiz mumkinki, o'sish

<sup>15</sup> <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi ma'lumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi.

sur'atlariga ahamiyat beradigan bo'lsak, 2017-yil va 2018-yil oralig'ida o'sish qariyb 82 577 mlrd so'mni ya'ni 98,2 % ni tashkil etmoqda bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining passiv operatsiyalari o'z samarasini bermoqda ekan. Bunga asosiy sabablardan qilib, Markaziy bank tijorat banklarining kapitallashuv va likvidlik darajasiga qo'yilgan talablarni kuchaytirdi hamda 2017-yil iyun oyida qayta moliyalashtirish stavkasini 9 foizdan 14 foizga ko'tardi. Shu bilan birga, kreditlash hajmlari tez sur'atlarda o'sishi natijasida likvidlikning taqchilligiga yo'l qo'ymaslik uchun 2017-yilning ikkinchi yarmida tijorat banklariga qayta moliyalashtirish kreditlarini berish mexanizmlari joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat mirziyiyevning 2017-yil 2-sentabrdagi "valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonini ijro etish asnosida 2017-yil sentabridan boshlab milliy valyuta ayirboshlash kursini aniqlashning bozor mexanizmi joriy etildi, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun valyuta mablag'larini sotish, sotib olish va tasarruf etishga qo'yilgan cheklolar olib tashlandi va bu islohatlar o'z samarasini quydagicha ko'rsatdi - 2017-yilda tijorat banklarining jami kapitali 2,3 baravar ortdi va 20,7 trillion so'mga yetdi. Kapitalning yetarlilik ko'rsatkichi 18,8 foizga oshdi, bu esa xalqaro normalardan 1,8 baravar ortiqdir. Tijorat banklarining jalb qilingan depozitlari umumiy hajmi 1,6 baravar ortdi va 58,7 trillion so'mni tashkil etdi. Banklar aktivlarining umumiy hajmi 2 baravar ko'paydi va 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 166,6 trillion so'mni tashkil etdi.

Xalqaro amaliyotda bank aktivlarinig risklilik darajasiga turli yondashuvlar mavjud. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezoni bo'lib, riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati maydonga chiqayapti va shunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholar turkumiga ega.

1-reyting (kuchli):

Agar tortilgan aktivlarning aksioner kapitaliga nisbati 5 foizdan oshmasa, ba'zi hollarda bu nisbat 5 foizlik chegaradan ozroq oshsa ham, agar bankning moliyaviy holati barqaror bo'lsa va boshqaruv organlari o'zlarining muammoli

kreditlar bilan ishlashda bilimdonligini ko'rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida tasniflash mumkin.

2-reyting (qoniqarli):

Zaxiraning o'rtacha tortilgan miqdori jami kapitalga nisbatan 15 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Bu holda ham ssudalar bo'yicha muammolar bo'lmasa, bankning kredit siyosati talab darajasida olib borilsa shu guruhga kiritish mumkin.

3-reyting (o'rtacha):

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak.

4-reyting (muammoli):

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

5-reyting (qoniqarsiz):

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo'llaniladi.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:

- a) barcha berilgan kreditlar (jumladan, banklararo kreditlar);
- b) investitsiyalar;
- d) xazina veksellari;
- e) davlat obligatsiyalari;
- f) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilar kiradi:

- a) pul aktivlari;
- b) asosiy vositalar;
- d) kapital xarajatlar;
- e) barcha moddiy aktivlar va nomoddiy aktivlar;
- f) boshqa aktivlar.

Muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar aktivlarni sifatini pasaytiradi. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich - daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat

banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari – mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (dqmo)ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Muddati o'tgan aktivlarning salmog'i umumiy aktivlar hajmidan 3 foizdan(tavsiya etiladi) oshmasligi lozim.

Agar bu aktivlar miqdori ikki va undan ortiq marta o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlar qatorida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida jalb qilingan mablag'lar ham mavjud.

Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog'i qancha ko'p bo'lsa, bu holat bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion institut, broker va diller sifatida ishtirok etadilar.

Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shu bozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar sifatida o'zini namoyon eta oladilar.

Tijorat bankining aktivlari tahlil qilinganda, uning investitsiya portfeli (sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga yoki qaram xo'jalik jamiyatlariga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar, so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar) quyidagi omillar asosida tasniflanishi va belgilangan miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilganligiga e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy talablariga binoan tijorat bankining investitsiya portfeli quyidagicha tasniflanadi:

- oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — “qoniqarsiz” sifatida;

- oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — “shubhali” sifatida;

- oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati — “umidsiz” sifatida.

Agar tijorat banki tomonidan qilingan investitsiyani qayta baholash natijasida salbiy farq yuzaga kelsa, ushbu miqdorda ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilishi lozim. Investitsiyalarning sifati eng past toifada tasniflanishi kerak. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kompaniya aktivlarining 40-80 foiz bank kapitali hisobidan ta‘minlanadi, qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklari o‘z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo‘shimcha daromad olish va balansining likvidligini ta‘minlash maqsadida doimdan keng foydalanadilar. Bu qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olinadigan daromad kafolatlangan va ular yuqori likvidlikka egadir. Daromad keltirmaydigan aktivlar guruhiga kassa, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob varag‘idagi mablag‘lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog‘ining yuqori bo‘lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanayotganligini ko‘rsatadi. Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi jami aktivlarning yetmish foizidan ortiq bo‘lishi bank kredit siyosati, kreditlar ajratish va ularni boshqarish jarayonining bo‘shligini bildiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizamga asosan tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko‘ra “standart”, “substandard”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” toifalarga tasniflanadi.

Sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar muammoli aktivlar deyiladi. Albatta muammoli aktivlar hisobi juda qattiq tartibda olib boriladi. Chunki, bunday aktivlarning banklar balansida mavjud bo‘lishi banklar uchun xavf tug‘dirishi mumkin.



**Aktivlar sifati bo'yicha shakllantiriladigan maxsus  
zaxira miqdori<sup>16</sup>**

<b>Aktivlar sifati</b>	<b>Maxsus zaxira (qaytarilmagan asosiy qarz qoldiq) summasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi (foizda)</b>
Standart	1
Substandart	10
Qoniqarsiz	25
Shubhali	50
Umidsiz	100

Tijorat banki balansida va balansdan tashqari moddalarda yuritilayotgan muammoli aktivlarning ulushi jami aktivlarning o'n foizidan ortiq bo'lsa, Markaziy bank tomonidan tijorat banki ijro rahbariyatining malakasi Markaziy bank talablariga muvofiq emas deb topishga hamda tijorat banki kengashi tomonidan bank faoliyati ustidan o'rnatilgan nazoratni yetarli emas deb hisoblanishi mumkin. Odatda, sifati "substandard", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zaxiralar shakllantiriladi va u banklar faoliyatida maxsus zaxiralar deb ataladi.

Bizga ma'lumki, tijorat banklarining aktivlari ularga aktiv operatsiyalrni amalga oshirishda ularga keng imkoniyat eshiklarini ochadi. Aktivlarning qanchalik darajada sifatliligi va ularning tarkibi katta ahamiyatga ega. Demak, quyida biz mamlaktimizdagi barcha tijorat banklarining aktivlari tarkibi keltirilgan.

Uning tarkibiga kredit qo'yilmalari, Markaziy bankdagi mablag'lar, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar, naqd pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiradi.

<sup>16</sup> Abdullayeva Sh. Z. "Bank ishi" o'quv qo'llanma "Iqtisod-moliya" Toshkent : 2017 yil

Bank tizimdagi tijorat banklarining aktivlari tarkibi<sup>17</sup>

Tijorat banklari aktivlari yillar kesimida dinamikasi								
Bank aktivlari nomi	01.01.2015-yil		01.01.2016-yil		01.01.2017-yil		01.01.2018-yil	
	Summa mln. so'mda	Ulushi, foizda	Summa mln. so'mda	Ulushi, foizda	Summa mln. so'mda	Ulushi, foizda	Summa mln. so'mda	Ulushi, foizda
Kredit qo'yilmalari, netto	42625	63,2	46841	62,1	52045	61,9	108467	65,1
Markaziy bankdagi mablag'lar	9794	12,9	10762	13,1	11958	14,2	14909	8,9
Boshqa banklardagi mablag'lar	8901	12,3	9781	12,5	10868	12,9	25060	15,0
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	2147	3,1	2359	3,4	2621	3,1	4115	2,5
Asosiy vositalar	1469	2,3	1615	2,4	1794	2,1	2335	1,4
Naqd pul mablag'lari	1094	2,1	1202	2,4	1336	1,6	4841	2,9
Boshqa aktivlar	2828	4,1	3108	4,1	3453	4,2	6905	4,2
<b>Jami:</b>	<b>68857</b>	<b>100</b>	<b>75668</b>	<b>100</b>	<b>84075</b>	<b>100</b>	<b>166632</b>	<b>100</b>

Ko'rinib turibdiki, bank aktivlarining katta qismini kredit qo'yilmalari tashkil etgan bir paytda, eng kam ulushga ega bo'lgan aktivlar guruhi bu- asosiy vositalar hisoblanar ekan. Bular orasida daromad keltiruchi va daromad keltirmaydigan aktivlar guruhi mavjud bo'lib, ulardan daromad keltirmaydigan aktivlar guruhga kassa, Markaziy bankdagi "nostro" vakillik hisob varag'idagi mablag'lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanayotganligini ko'rsatadi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi jami aktivlarning yetmish foizidan ortiq bo'lishi bank kredit siyosati, kreditlar ajratish va ularni boshqarish jarayonining bo'shligini bildiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham bu holatga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinadi.

<sup>17</sup> <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi ma'lumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi

**5-jadval**

**Bank tizimi umumiy aktivlari miqdorida tijorat banklarning ulushi<sup>18</sup>**  
**(2018-yil 1-yanvar holatiga)**

№	Bank nomi	Aktiv	
		Summa (mlrd soʻmda)	Ulushi, foizda
<b>Jami</b>		<b>166 632</b>	<b>100%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>136 505</b>	<b>82%</b>
1	Oʻzmilliybank	51 473	30,90%
2	Asaka bank	24 274	14,60%
3	Oʻzsanoatqurilishbanki	24 019	14,40%
4	Ipoteka bank	13 389	8,00%
5	Qishloq qurilish bank	6 647	4,00%
6	Xalq banki	5 535	3,30%
7	Agrobank	4 982	3,00%
8	Aloqa bank	2 792	1,70%
9	Mikrokreditbank	1 743	1,00%
10	Turon bank	1 565	0,90%
11	Oʻzagroeksportbank	86	0,10%
<b>Boshqa banklar</b>		<b>30 127</b>	<b>18%</b>
12	Oʻzkdb bank	5 738	3,40%
13	Hamkorbank	5 572	3,30%
14	Orient finans bank	4 042	2,40%
15	Kapital bank	3 537	2,10%
16	Ipak yoʻli bank	3 243	1,90%
17	Trastbank	1 800	1,10%
18	Invest finans bank	1 643	1,00%
19	Aziya alyans bank	1 368	0,80%
20	Savdogar bank	717	0,40%
21	Davr bank	629	0,40%
22	Ziraat bank	427	0,30%
23	Turkiston bank	276	0,20%
24	Eron soderot bank	304	0,20%
25	Universal bank	216	0,10%
26	Ravnaq bank	340	0,20%
27	Hi-tech bank	188	0,10%
28	Madad invest bank	85	0,10%

Yuqoridagi jadval maʼlumotlaridan maʼlumki, 2017-yil yakunlari boʻyicha umumiy bank tizimi aktivlari 166.6 trln soʻmni tashkil etdi. Bunda davlat ulushi mavjud banklarning hissasiga 136 505 mlrd soʻm toʻrgʻri kelsa, xususiy banklarning ulushi esa 30 127 mlrd soʻmi hosil qiladi. Eng yuqori ulushga ega boʻlgan davlat ulushi mavjud bank 51 473 mlrd soʻm bilan “Oʻzmilliybank” ni

<sup>18</sup> <http://www.cbu.uz> – Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi maʼlumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi.

ko‘rishimiz mumkin. Bu naminiatsiya bo‘yicha xususiy banklar ichida esa 5 738 mlrd so‘mlik aktivlar egasi bo‘lgan “O‘zKDB” bank birinchi o‘rinni egallab turibdi.

Demak, mamlaktimiz bank-moliya tizimi barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan xalqaro miqyosida maqtansak bo‘ladi, chunki, bizning ko‘rsatkichlar xalqaro belgilab qo‘yilgan me‘yorlar doirsida baho beradigan bo‘lsak 2-3 barobar yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Moody’s” xalqaro reyting agentligi O‘zbekiston bank tizimi rivojlanish istiqbollariga berilgan “barqaror” darajadagi reyting bahosini ettinchi yildirki qayta tasdiqlab kelmoqda. Shu bilan birga “Standard & Poor’s” va “Fitch ratings” reyting agentliklari ham O‘zbekiston bank tizimi faoliyatini “barqaror” sifatida baholamoqda.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tijorat banklari katta uchlikni tashkil etuvchi “Moody’s”, “Standard & Poor’s” va “Fitch ratings” xalqaro reyting agentliklarining ijobiy baholariga egalar. Bu banklarda yo‘lga qo‘yilgan boshqaruv sifati va shaffofligining amaliy natijasidir.

## **2.2. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi tahlili**


Sir emaski, tijorat banklari olinki, barcha moliyaviy-iqtisodiy institutlarda samaradorlik boshqaruvchilar diqqat markazida bo‘ladi. Buning sababi shuki, aynan shu ko‘rsatkich orqali tijorat banklari o‘z faoliyatini istiqbolini belgay oladi. Bundan tashqari, qanchalik biror tizim samarali faoliyat ko‘rsatsa, u tizim uchun bu rag‘batlantirish sifatida xizmat qilishiga ishonchimiz komil. Mamlaktimizda tijorat banklari foliyatini tahlil qilib faoliyat samaradorligiga baho beruvchi bir qancha mas‘ul tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular har yili o‘z nashrlarini omma e‘tiboriga havola qilib boradilar. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – axborotning ochiqligi, shaffofligini ta‘minlash orqali, aholining banklarga bo‘lgan ishonchini qozonish va uni oshirishdir. Bunday tashkilotlardan “Ahbor-reyting” milliy baholash agentligi, Markaziy bank matbuot xizmati va banklar assotsatsiyasi axborot xizmati kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Xususan, moliya-bank tizimi faoliyatining asosiy milliy indikatorlari, chunonchi, “Banklarning umumiy

kapitali yetarliligi”, “Tijorat banklarining likvidligi”, “Depozitlar hajmining dinamikasi”, “Kredit qo‘yimalari hajmining o‘zgarishi” o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yuqori baholarga mos bo‘ldi.

Banklar tomonidan 2017-yil uchun ustuvor vazifa qilib belgilangan sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy bo‘lgan eng muhim ob’ektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, mamlakatda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va liberallashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz banklarining barqaror holati, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning yildan-yilga oshishi hamda aholi real daromadlarining o‘sib borishi aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini depozitlarga jalb qilishning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu o‘z navbatida, 2017-yil davomida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi yil boshiga nisbatan 61,4 foizga (2016-yilda 24 foiz) oshib, hisobot sanasiga 58,7 trln. so‘mni tashkil qildi, shundan 51 foizi milliy valyutadagi va 49 foizi xorijiy valyutadagi depozitlar hissasiga to‘g‘ri keladi.(4-rasm)



**4-rasm. Tijorat banklari jami depozitlar hajmi dinamikasi<sup>19</sup>**

<sup>19</sup> <http://www.cbu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi ma’lumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi.

Milliy valyutadagi depozitlar hajmi yil boshiga nisbatan 13,3 foizga (3,5 trln. soʻmga) oʻsib, 2018-yilning 1-yanvar holatiga 29,8 trln. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi 88,1 foizga yoki 18,8 trln. soʻmga oshib, 28,8 trln. soʻmga yetdi. Xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi oʻsishining 80,5 foizi yoki 15,1 trln. soʻmi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi hisobiga yuz bergan boʻlsa, qolgan 3,7 trln. soʻm miqdordagi oʻsish xorijiy valyutadagi depozitlar real hajmining qariyb 15 foizga yoki 3,1 mlrd. AQSh dollarida 3,6 mlrd. AQSh dollarigacha oshishi bilan izohlanadi. 2018 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklaridagi jami depozitlarning 65,8 foizi, shu jumladan, aholi omonatlarining 66,7 foizi davlat ulushiga ega banklar hissasiga toʻgʻri kelgan boʻlib, ushbu depozit va omonatlar davlat ulushiga ega banklarning jami majburiyatlarining 33 foizini tashkil etdi. Kapitalida davlat ulushi boʻlmagan tijorat banklari hissasiga bank tizimidagi jami depozitlarning 34,2 foizi, shu jumladan, jami aholi omonatlarining 33,3 foizi toʻgʻri kelgan holatda, depozit va omonatlarning mazkur banklar jami majburiyatlaridagi ulushi 76,9 foizni tashkil etgan. Bu esa, davlat ulushiga ega banklardan farqli ravishda, boshqa banklar uchun depozitlar va aholi omonatlari kreditlash amaliyotlarining asosiy resurs manbai boʻlib xizmat qilayotganligini bildiradi.

Bank tizimida depozitlar va aholi omonatlari boʻyicha oʻrnatilgan foiz stavkalarini tahlili, ularning 2017-yil davomida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan monetar siyosat chora-tadbirlari taʼsirida shakllanib borganligini koʻrsatmoqda. Xususan, 2017-yilning yanvar-iyun oylarida yuridik va jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari boʻyicha oʻrtacha tortilgan foiz stavkasi 11,9 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot yilining ikkinchi yarmida depozitlar boʻyicha foiz stavkalarining oʻsishi kuzatildi va 2017-yilning dekabr oyi yakuni boʻyicha oʻrtacha tortilgan foiz stavkasi 15,3 foizga yetdi. Mazkur oʻsish, asosan yuridik shaxslarning muddatli depozitlari boʻyicha oʻrtacha tortilgan foiz stavkasining yilning birinchi yarmidagi 6,4 foizdan yil yakuni boʻyicha 12,3 foizgacha koʻtarilishi hisobiga yuz berdi.

Depozitlar boʻyicha foiz stavkalarining bunday oʻsishi asosan 2017-yilning

iyun oyi oxirida valyuta siyosatini liberallashtirishga tayyorgarlik ko‘rish doirasida Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining oshirilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 2017-yilda tijorat banklari o‘z faoliyatini valyuta siyosatining liberallashtirilishi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining Qat‘iylashtirilishi va bank nazorati talablarining yanada kuchaytirilishi, tijorat banklariga, ayniqsa, davlat ulushiga ega banklarga hukumat tomonidan iqtisodiyotni kreditlash bo‘yicha vazifa va talablarning kuchaytirilishi sharoitida olib borildi hamda mazkur omillar bank tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatdi.

Hisobot yili davomida tijorat banklari umumiy kapitali 2,3 barobarga, jami aktivlari 2,0 barobarga, shu jumladan, kredit qo‘yilmalari hajmi 2,1 barobarga hamda jami majburiyatlari 1,9 barobarga, shu jumladan, jalb qilingan depozitlar hajmi 1,6 barobarga oshdi. Mazkur yuqori o‘shish ko‘rsatkichlarining shakllanishiga milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi jiddiy ta'sir qilgan bo‘lsa-da, bank tizimi o‘shish ko‘rsatkichlarining real hisobda ham yuqori bo‘lishi banklar moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri- banklarning kapitalidir. Bank tizimi barqarorligining asosiy mezonlaridan biri, bu banklarning o‘z mablag‘lari bilan ta'minlanganlik darajasi, ya'ni ularning kapitallashuv darajasining yuqoriligi hisoblanadi. Tijorat banklari kapitalining yuqoriligi milliy iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabini yanada kengroq qondirish hamda aholi va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini kengroq himoyalash imkonini beradi. Tijorat banklarining umumiy kapitali 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2016-yilning 1-yanvariga nisbatan 23,3 foizga oshib, qariyb 7,8 trln. so‘mni tashkil etgan edi. Banklar kapitallashuv darajasini oshirish borasida amalga oshirilganchora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali 2017 yil davomida 2,3 barobarga ko‘payib, 2018-yilning 1-yanvar holatiga 20,7 trln. so‘mni, ustav kapitali umumiy miqdori esa 2,8 barobarga oshib, 16,3 trln. so‘mni tashkil etdi. Bunda davlat ulushiga ega banklar kapitali 11,7 trln. so‘mga oshdi va bu holat ijobiy hisoblanib, banklarning faoliyati samarali olib borilayotganini

bildiradi.(5-jadvalga qaralsin)

## 5-jadval

### Tijorat banklarining jami kapitali tarkibi va dinamikasi<sup>20</sup> (1-yanvar holatiga), mlrd soʻmda

Koʻrsatkichlar	Davlat ulushi mavjud banklar			Kapitalida davlat ulushi mavjud boʻlmagan banklar			Jami		
	2017-yil	2018-yil	Foizda	2017-yil	2018-yil	Foizda	2017-yil	2018-yil	Foizda
<b>Jami kapitali</b>	<b>6 573</b>	<b>16 672</b>	<b>253,6</b>	<b>2 408</b>	<b>4 005</b>	<b>166,3</b>	<b>8 981</b>	<b>20 676</b>	<b>230,2</b>
<b>Ustavkapitali</b>	4 616	14 195	307,5	1 189	2 111	177,5	5 805	16 307	180,9
<b>Zaxira kapitali</b>	12	14	116,7	29	54	186,2	41	68	165,9
<b>Taqsimlan- magan foyda</b>	1 062	1 269	119,5	406	524	129,1	1 468	1 793	122,1

Ustav kapitalida davlat ulushi mavjud boʻlgan banklar quydagilardir: “OʻzR TIF Milliy banki”, “Oʻzsanoatqurilishbank”, “Agrobank”, “Xalq banki”, “Mikrokreditbank”, “Qishloq qurilish bank”, “Ipoteka-bank”, “Asaka” bank, “Aloqabank”, “Turonbank”, “Oʻzagroeksportbank”. Bundan tashqari, hisobot yili davomida kapitalida davlat ulushi boʻlmagan tijorat banklari umumiy kapitali 1,6 trln. soʻmga oshirilgan boʻlib, shundan 1 trln. soʻmi qoʻshimcha aksiyalar va qarz qimmatli qogʻozlarni joylashtirish orqali shakllantirildi. Natijada 2017-yil davomida banklar kapitalining yetarlilik darajasi koʻrsatkichi, tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarga nisbatan 14,7 foizdan 18,8 foizgacha (minimal talab 12,5 foiz) oshdi. Bu esa, tijorat banklari umumiy kapitalini oshirish boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning bank tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ijobiy taʼsir koʻrsatganligini namoyon etadi.

Bundan tashqari, hisobot yili davomida kapitalida davlat ulushi boʻlmagan tijorat banklari umumiy kapitali 1,6 trln. soʻmga oshirilgan boʻlib, shundan 1 trln. soʻmi qoʻshimcha aksiyalar va qarz qimmatli qogʻozlarni joylashtirish orqali shakllantirildi. Bu esa banklari uchun fond birjalariga katta yoʻl ochishiga hech

<sup>20</sup> <http://www.cbu.uz> – Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sahifasi maʼlumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi.



shubxa yoq.

6-jadval

**Mamlakatimiz tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili<sup>21</sup>**  
(2018-yil 1-yanvar holatiga)

Ko'rsatkich Nomi	Jami		3 trln. so'mgacha		3 dan 10 trln. so'mgacha		10 dan 30 trln. so'mgacha*		30 trln. so'mdan yuqori**	
	Bank soni	Summa	Bank soni	Summa	Bank soni	Summa	Bank soni	Summa	Bank soni	Summa
Aktivlari	28	166 632	16	14 180	8	39 296	3	61 682	1	51 473
Aktivlar daromadlili-gi	28	1,90%	16	3,10%	8	3,00%	3	1,10%	1	1,30%
Jami kapitali	28	20 676	16	3 114	8	6 173	3	6 582	1	4 807
Kapital daromadlili-gi	28	17,10%	16	16,50%	8	23,70%	3	12,90%	1	13,70%
Kapital monandligi ko'rsatkichi	28	18,80%	16	23,70%	8	19,70%	3	16,70%	1	18,50%
Kreditlari	28	110 572	16	7 792	8	21 004	3	46 595	1	35 182
2017-yil yakuni bo'yicha foydasi	28	1 881	16	280	8	831	3	416	1	354

\* O'zsanoatqurilishbank, Asaka bank, Ipoteka bank

\*\* O'zmilliybank

Yuqoridagi jadvalda tijorat banklari aktivlari miqdoriga ko'ra taqsimlab chiqilgan. Unga ko'ra banklar to'rt guruhga ajratilgan bo'lib, birinchi guruhga aktivlari miqdori 3 trln. so'mgacha bo'lgan banklar, ikkinchi guruhga aktivlari miqdori 3 trln.dan 10 trln. so'mgacha bo'lgan banklari, uchunchi guruhga aktivlari miqdori 10 trln.dan 30 trln. so'mgacha bo'lgan banklar va nihoyat to'rtinchi guruhga esa aktivlari miqdori 30 trln. so'mdan yuqori bo'lgan banklari o'rin egallagan.

<sup>21</sup> <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Mazrkaziy bankining rasmiy sahifasi ma'lumotlari asosida talab tomonidan tayyorlandi.

Bizga ma'lumki, aktivlarning samaradorligi ularning foyda keltirish darajasiga qarab ya'ni ularning daromadlilikiga qarab aniqlanadi. Aktivlarni esa samaralisini jalb qilish har bir bankning ichki siyosatidan kelib chiqadi. Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo'lib, bank resurslarining 80 % dan ortig'ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari yetarli darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, respublika bank tizimida iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati bilan bog'liq xatarlar mo'tadil darajada shakllangan. Misol qiladigan bo'lsak, 2018-yilning 1-yanvar holatiga tijorat banklari kredit qo'yilmalarining 40,9 foizi sanoat, 14,7 foizi transport va kommunikatsiya sohasi, 12,3 foizi jismoniy shaxslar, 4,7 foizi savdo va umumiy xizmat ko'rsatish sohasi, 4,3 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga hamda 3,1 foizi qurilish sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar salmog'i tijorat banklari aktivlari salmog'ida 4 115 mln. so'mni ya'ni 3,1 foizni tashkil etgan, bu ko'rsatkich esa o'tgan 2017-yil natijalaridan farq qilsada, uning jami aktivlar tarkibidagi ulushi 0,6 foizga kam natijani ko'rsatgan. Bu degani esa, tijorat banklarining moliya bozoridao'z aktivlarini joylashtirish va o'z qimmatli qog'ozlarini qayta sotib olgani, shuningdek moliya bozorida faoliyati bazis yilga nisbatan kamroq olib borilganini anglatadi. Banklarning mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turiladi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.


O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar: kapital yetarliligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal tavakkalchilik miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomasiga

muvofig, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Banklar jalb qiladigan mablag'lar tarkibi turlicha bo'ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar: bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar (depozitlar), o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash (depozit va jamg'arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab

- depozitlar;
- nodepozit resurslarga bo'linadi.

Jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi.



**5-rasm. "Hamkorbank" ATBning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi<sup>22</sup>**

Yuqoridagi rasm orqali biz "Hamkorbank" ATBning 2018-yil 1-yanvar holatiga

<sup>22</sup> Консолидированная финансовая отчетность в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности и Аудиторское заключение 31 декабря 2017 года

berilgan ma'lumotlarga ko'ra uning aktivlari miqdori dinamikasi, chiqarilgan kreditlar miqdori, jalb qilingan depozitlar miqdori va uning kapital hajmi dinamikasini ko'rishimiz mumkin. Uch yillik ma'lumotlar tahlil qilinganda shuni ko'rish mumkinki, "Hamkorbank" ATBning barcha asosiy ko'rsatkichlari o'sib boruvchi tendensiyaga ega. Yana ham aniqroq aytsak, bankning aktivlari oxirgi yilda 5 572 mlrd.so'mni, kreditlari miqdori 3 229 mlrd.so'mni, kapitali 573 mlrd.so'mni va jalb qilgan depozitlari esa 3 237 mlrd.so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar bilan "Hamkorbank" ATB umumiy reytingda 13-o'rinni egallagan bo'lsa, xususiy banklar orasida esa 2-o'rinni band etib turibdi.

## 7-jadval

### "Hamkorbank" ATBning samaradorligi tahlili<sup>23</sup> (1-yanvar holatiga), mlrd.so'mda

Yillar	Aktivlar	Majburiyatlar	Aktivlarning majburiyatlarga nisbati	Kreditlar	Depozitlar	Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati
<b>Jami</b>	<b>166 632</b>	<b>145 956</b>	<b>114.2%</b>	<b>110 572</b>	<b>58 668</b>	<b>188.5%</b>
2018-yil	5 572	4 999	111.5%	3 229	3 237	99.7%
<b>Jami</b>	<b>84 075</b>	<b>75 094</b>	<b>112.0%</b>	<b>52 611</b>	<b>36 341</b>	<b>144.8%</b>
2017-yil	4 015	3 582	112.1%	2 470	2 745	90.0%
<b>Jami</b>	<b>75 667</b>	<b>67 584</b>	<b>111,0%</b>	<b>47 349</b>	<b>32 706</b>	<b>144.7%</b>
2016-yil	2 967	2 665	111.3%	1 637	1 963	83.4%

Xulosa qilib aytganda mamlaktimiz sharoitida banklari faoliyati samaradorligi tahlil qilib borish va yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish, o'z navbatida bank tizimining ham smamrali faoliyat yuritishiga keng zamin yaratadi. Agarda tijorat banklarida faoliyatni sifatini ifodalovchi tahliliy amallarga puxta yondashilsa, bu banklarda aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish ular uchun mushkul kechmaydi, chunki, tahlil qilish orqali faoliyatni prognozlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan holda keljakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muommo

<sup>23</sup> <http://www.hamkorbank.uz>- "Hamkorbank" ATB rasmiy sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi

va kamchiliklarni tez aniqlash va bu orqali bu muommolarga duch kelganda esankirab qolmay, reja ososida harakat qiladilar.

### **2.3. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish jarayonini boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasida bir qator dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dunyo mamlakatlari tijorat banklarining daromad bazasiga kuchli salbiy ta'siri yuzaga kelgan.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklarining passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari. Jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi va kolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq

boʻlgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy oʻrinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi. Ssudalar berilishining taʼminotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan taʼminlangan kreditlarga beriladi.

Banklarning mijozlarga beradigan ssudalari yoki kreditlarning muddatidan kelib chikib, ular muddatli va onkol kreditlar (inglizchadan on call –talab boʻyicha)ga boʻlinadi.

Ssudalar berilishining taʼminotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar, veksellar, fondlar (qimmatli qogʻozlar) va boshqalar bilan taʼminlangan kreditlarga boʻlinadi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir. Turli qimmatli qogʻozlar uning obʻekti boʻlib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qogʻozlar boʻyicha operatsiyalarining 2 turi koʻproq qoʻllaniladi. Bular qimmatli qogʻozlarni kreditning taʼminlanganligi uchun qabul qilish yoʻli bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan oʻz hisobiga sotib olish yoʻli bilan operatsiyalar oʻtkazish.

Oxirgi yillarda respublikaning koʻpgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini koʻp miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qogʻozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning taʼminoti sifatida koʻchmas mulk, boshqa bank yoki sugʻurta tashkilotining sugʻurta kafolati ham qabul qilinishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida oʻz ifodasini topadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining olib boradigan aktiv operatsiyalari juda turli tumandir, lekin iqtisodiy adabiyotlarda aktiv operatsiyalar oʻz mohiyatiga koʻra quyidagi asosiy guruxlarga ajratiladi:

- yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga ham turli shartlar asosida kreditlar berish;

- bank mijozlariga turli vositachlik xizmatlarini koʻrsatish;

- lizing, faktoring va forfeiting operatsiyalarini amalga oshirish;
- investitsiya loyixalarini amalga oshirish;
- davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga o'z nomidan va o'z hisobidan investitsiyalar qilish;
- bank mijozlariga kassa xizmatlarini ko'rsatish;
- mijozlarga boshqa turdagi an'anaviy va noan'anaviy bank xizmatlarini ko'rsatish.

Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish nafaqat tijorat banklaridagi faoliyatini samarali yuritishga balki, mamlakatning ba'zi bank tizimi bilan bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham ta'sir qildi. U makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ishsizlik bo'lishi mumkin, narxlar darajasi bo'lishi mumkin, Yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori bo'lishi mumkin va inflatsiya bo'lishi mumkin. Bank tizimidagi o'zgarishlar xususiyatidan kelib chiqqan holda bank operatsiyalari makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga tulicha ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir o'z navbatida mamlakat itisodiyoti o'sishini ham yoki oldinga itarishi, yoki oqraqaga tortishi mumkin. Xalqaro valyuta fondining 2018-yil yanvar oyida e'lon qilingan jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan hisob-kitoblariga ko'ra, 2017-yil yakuni bo'yicha jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati 3,7 foizni tashkil qilib, 2016 yilga (3,2 foiz) nisbatan 0,5 foiz bandga yuqoriroq bo'ldi. Bunda iqtisodiy o'sish sur'atlarining 2016-yilga nisbatan tezlashishi dunyoning 120 ta mamlakatida kuzatilgan bo'lib, ularning hissasiga jahon Yalpi ichki mahsulotining qariyb 75 foizi to'g'ri keladi. 2017-yilda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari hisoblangan davlatlar iqtisodiyotida ham o'sish sur'atlarining 2016-yilga nisbatan yuqori bo'lishi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga tashqi talabning oshishiga xizmat qildi. Hisobot yili davomida neft ishlab chiqarish hajmini chegaralash bo'yicha kelishuvning uzaytirilishi va yaqin sharqda geosiyosiy tanglikning saqlanib turishi sababli jahon bozorida «brent» markali neft narxi 2016-yilga nisbatan 20,5 foizga oshdi. Mazkur omil Rossiya iqtisodiyotining 2016 yildagi 0,2 foizlik pasayishidan so'ng, 2017-yilda 1,5 foizga o'sishida muhim rol o'ynadi.

Qozog‘istonda ham 2017 yil yakuni bo‘yicha iqtisodiy o‘shish sur‘ati 2016 yilga (1,1 foizlik o‘shish) nisbatan sezilarli darajada jadallashib, 4,0 foizni tashkil etdi.

Xitoy eksportiga tashqi talabning oshishi natijasida 2017 yilda mazkur mamlakatda iqtisodiy o‘shish sur‘ati 2016 yildagi 6,7 foizga nisbatan biroz yuqorilab, 6,9 foizga yetdi. Shuningdek, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari Turkiyada 3,2 foizdan 5,1 foizgacha, respublikamizga qo‘shni bo‘lgan va bugungi kunda o‘zaro iqtisodiy aloqalar jadal rivojlantirib borilayotgan Tojikistonda 6,9 foizdan 7,1 foizgacha, Turkmanistonda 6,2 foizdan 6,5 foizgacha, Qirg‘izistonda 3,8 foizdan 4,5 foizgacha hamda Afg‘onistonda 2,2 foizdan 2,6 foizgacha ko‘tarildi.

Bundan tashqari, hisobot yilida jahon bozorlarida O‘zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari qatoriga kiruvchi oltin narxining 12 foizga, mis narxining 20,7 foizga va paxta narxining 12,8 foizga o‘shishi respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyatdan oladigan daromadlarining oshishini ta‘minlab, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining 8 foizdan yuqori bo‘lishiga xizmat qildi.

2017-yil yakuni bo‘yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YaIM) real o‘shish sur‘ati 5,3 foizni, uning nominal hajmi esa 249,1 trln. so‘mni tashkil etdi. YaIMning aholi jon boshiga hisoblangan miqdori esa 2016 yilga nisbatan real hisobda 3,6 foizga o‘shib, 7 692 ming so‘mni tashkil etdi. Xususan, 2017-yilda respublikamiz iqtisodiyotida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 60,7 trln. so‘mni yoki 11,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Uning YaIMdagi ulushi esa 2016 yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2 foiz bandga oshib, 24,4 foizni tashkil etdi. Jami investitsiyalarning 43,9 foizi korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari, 26,9 foizi xorijiy investitsiyalar va kreditlar, 11,0 foizi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari, 8,5 foizi O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari, 5,5 foizi davlat byudjeti hamda 3,9 foizi davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi.<sup>24</sup>

Yalpi ichki mahsulotni oladigan bo‘lsak, u mamlakatda ma‘lum muayyan

---

<sup>24</sup> “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” tahliliy jurnal № 626 2017-yil IV chorak yakunlari



muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar(ish, xizmat) va mahsulotlarning bozor narxini tushinishimiz mumkin.

Pul-kredit siyosati instrumentlaridan samarali foydalanish pul massasining YaIMga nisbatini belgilangan prognoz ko'rsatkichlari doirasida ushlab turish va inflyatsiya darajasiga monetar omillar ta'sirining oldini olish imkoniyatini tug'diradi.

Iqtisodiyotda pul taklifi hajmi va so'm devalvatsiya darajasining tez sur'atlarda o'sishi real foiz stavkalarining pasayishiga hamda tijorat banklarining kreditlariga bo'lgan talabning oshishiga, natijada inflyatsion bosim va xatarlarning kuchayishiga olib keldi, ya'ni qayta moliyalash stavkasini 2017-yilning 28-iyunidan yillik hisobda 9 foizdan 14 foizgacha oshirishni taqozo etdi. 2017-yilda mamlakatdagi tijorat banklarining depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari pulga bo'lgan talab va taklif, inflyatsiyaning joriy hamda kutilayotgan darajasi, shuningdek, Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan dastaklar ta'sirida shakllantirildi.

Shuningdek, hududlarda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini oshirish hamda xususiy kapitalni bank tizimiga jalb etishni yanada kengaytirish maqsadida 2016-yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunining 53-moddasiga muvofiq, farg'ona shahridagi "madad invest bank" xususiy aksiyadorlik tijorat bankiga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berildi. Hozirda hududlarida tijorat banklarining 864 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda va bu bilan bank 25 920 nafardan yuqori ishsiz aholini ish bilan ta'minlab bandlik ko'rsatkichiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining 4 299 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo'lib, shularning 2 221 tasi qishloq joylaridagi aholiga, ayniqsa, fermer xo'jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining bu kabi rivojlanib borishi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 60 719,2 mlrd. So`mni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

## 8-jadval

### Bank tizimi asosiy ko'rsatkichlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi<sup>25</sup>

(1-yanvar holatiga), mlrd.so'mda

Ko'rsatkichlar nomi	2016-yil	2017-yil	2018-yil
YaIM*	171 423.2	199 325.1	249 136.4
Bank aktivlari, jami	80 467.6	84 075.0	166 631.8
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	46.9%	42.2%	66.9%
Kredit qo'yimalari, jami	42 756.4	52 610.5	110 572.1
Kredit qo'yimalarining YaIMga nisbati, foizda	24.9%	26.4%	44.4%
Jalb qilingan depozitlar, jami	34 257.8	36 341.0	58 668.5
Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	19.9%	18.2%	23.5%
Jami kapital	8083.2	8 981.3	20 676.1
Jami kapitalning YaIMga nisbati, foizda	4.7%	4.5%	8.3%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oldingi ikki yilga nisbatan 2017-yil davomida ancha salmoqli bo'lib qariyb ikki barobar yuqori, bank aktivlarining jami YaIM ga nisbatan 66.9% ni tashkil etgan bo'lsa, kredit qo'yimalari 44.4%ni, jalb qilingan depozitlar esa 23.5%ni va nihoyat jami kapitalni YaIMga nisbati 8.3% ni tashkil etdi.

Demak, mamlakatda moliya tizimi va bank tizimi bir-biri bilan uzviy bog'liqligi sababli birida yuz berayotgan o'zgarishlar ikkinchisiga ta'sir etmay qolmaydi. Chunki, mamlakat iqtisodiyotining barcha boshqariladigan richaklari aynan shu ikki tizimi bilan bog'liq holda tartibga solib turiladi. Agarda biz bank-moliya tizimi uchun optimal boshqaruv mexanizmini topadigan bo'lsak biz albatta mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarishga erishgan bo'lamiz.

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida tijorat banklarining moliya tizimidagi rolini belgilab beruvchi ma'lumotlarni tahlil qilib, holatiga umumiy xulosa beradigan bo'lsak, so'nggi yillar misolida ko'rilgan faoliyatning natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamiz bank tizimi hali o'zining potensialidan to'liq foydalana olganicha yo'q buning yaqqol isboti sifatida shuni aytish mumkinki, xalqaro maydonda bank 500ga yaqin operatsiyalar bajarishayotgan bo'lsa, mamlakatimiz tijorat banklari esa atiga 80ga yaqin operatsiyalarni bajarmoqdalar xolos. Buning asosiy sababi esa mamlakatimiz aholisining banklarga bo'lgan ishonchining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ssuda-kredit munosabatlarning murakkabliligi, qolaversa inflatsiya tufayli moliyaviy holatning nobarqarorligidandir.

Shularni barchasini inobatga olib ta'kidlash lozimki, hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri —aholini bank xizmatlariga ishinchini ortirish orqali bank faoliyatini yanada kengaytirish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali hal qilishning yo'llaridan biri bu – aholi va bank o'rtasida turli xil iqtisodiy tusga ega bo'lgan munosabatlarni aholi tushuna oladigan darajada soddalashtirish bo'lib, bu o'z navbatida bank mijozlari salomog'ini sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Xususan “Art 285 g.e.o ning xulasalariga ko'ra zamonaviy banklar – universal kredit institutlari hisoblanadi va ular har qanday aktivlari hisobidan foyda olishga harakat qiluvchi muassasa. Shuningdek bu banklar depozit xizmatlari va boshqa bank operatsiyalarini amalga oshirishga haqlidir”<sup>26</sup>. Aynan bank tizimi haqida xorijiy adabiyotlarda juda ko'p maqollar uchraydi. Qachonki, bankning mijozlari ko'pchilikni tashkil etganda, bank turli boshqa xizmatlarni mijozga taklif qilgan holda qo'shimcha daromad manbalarini o'zi uchun kashf etishi mumkin bo'ladi.

---

<sup>26</sup> <http://www.Scopus.com> sayti ma'lumoti asosida “Bank – universal credit institution“ maqolasidan olingan 2016- yil Science Direct nashri 753-758-bet.

### **3-BOB. MOLIYA TIZIMINI TARAQQIY ETISHIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

#### **3.1. Moliya tizmining tarkibiy qismi sifatida tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning mohiyati**

Mamlakat bank tizimi rivojlanib bormoqda buning isbotini biz so‘ngi yillarda bank tizimida erishilgan yutuqlarimizda ko‘rishimiz mumkin. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko‘rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaymoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib bormoqda.

Aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Shu bilan birga, bank xizmatlari iste‘molchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish madaniyati va bank tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda.

Albatta rivojlanish bilan bir qatorda oldimizda shu o‘zgarishlar natijalarida bir qancha muammoli jihatlar ham paydo bo‘lmoqda. Buni biz nazariy va amaliy jihatdan ham ko‘rib o‘tmoqdamiz. Bank xizmatlari uning tadbirkorligini, daromadliligini ta‘minlashga va iqtisodiyotning talablarini qondirishga yo‘naltirilgan an‘anaviy sohasi bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida milliy bank tizimi bir qator, shu jumladan, etarli darajada ko‘rib chiqilmagan bank xizmatlari nazariyasini rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Buni biz Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 23-apreldagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarorida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Bu qonunning qabul qilinishi bank tizimining yanada rivojlanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishiga hech shubha yo‘q.

Mazkur qarorda quyidagi kamchiliklar va muammolar aks ettirilgan<sup>27</sup>:

-kreditlarni ajratish bo'yicha qaror qabul qilishda vakolatlar haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilmoqda;

-kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkab mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatlarini chegaralamoqda;

-tijorat banklari tomonidan mikroqarzlar ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzlarni olish darajasini oshirishni ta'minlamayapti, mikrocredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelmoqda;

-chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratmoqda;

-bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda va aholining keng qatlamlari uchun ochiq innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to'sqinlik qilmoqda;

-kreditlarni (mikroqarzlarni) ko'rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqlari va boshqa to'lovlarning undirilishi qarzning real qiymati oshishiga olib kelmoqda;

-shartnomalarga xizmatlar uchun tariflar, ajratilgan kreditlar va qabul qilingan depozitlar bo'yicha foiz stavkalarni bir tomonlama o'zgartirishni nazarda tutuvchi shartlarni kiritish, shuningdek, bir xizmatni qo'shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan ko'rsatish bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzmoqda;

-bank to'lov kartalaridan chet el valyutasini yechish bo'yicha cheklolarning mavjudligi va bankomatlar sonining yetarli emasligi valyuta

---

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 3620 sonli qarori [www.uza.uz](http://www.uza.uz) sayti ma'lumoti

ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishda xizmat ko'rsatishni talab darajasida ta'minlamayapti kabi kamchiliklarni sanab o'tdi.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari respublikamiz tijorat banklari tomonidan aholiga va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligini oshirish va rivojlantirishda bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko'rsatadi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagi muammolarni ko'rsatish mumkin:

1. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarni naqd pul bilan ta'minlashda uzilishlarning mavjudligi;

Banklar tomonidan mijozlarni o'z vaqtida naqd pul bilan ta'minlanmasligi, birinchidan, mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchini susaytiradi; ikkinchidan, mijozlarning ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida banklar bilan mijozlar o'rtasida kassa xizmati to'g'risida shartnomalar tuzilishi va ushbu shartnoma shartlarida bank kassa xizmati (pullarni qabul qilish, saralash, sanash, o'rab bog'lash va saqlash) xarajatlarini qoplash ma'lum miqdorda xizmat haqi olishligi va mijoz bank o'z vaqtida naqd pul bilan ta'minlamagan taqdirda ma'lum miqdorda jarima to'lashini ko'zda tutilmog'i lozim. Ushbu shartlar bank va mijoz o'rtasida o'zaro kelishilgan holda belgilanishi lozim.

2. Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarining depozit xizmatining samaradorligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning mavjudligi;

Respublikamiz tijorat banklarining depozit xizmati samadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ikkinchi omil bo'lib, aholidan jalb qilingan muddatli omonatlarning foiz stavkalarini qisqa muddatli kreditlarning foiz stavkalaridan yuqori ekanligi hisoblanadi.

3. Respublikamiz tijorat banklarining hisob-kitob xizmatidan oladigan daromadlarining banklarning operatsion daromatlari hajmidagi salmog'ini oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar mavjud va ular quyidagilardan iborat:

- respublikamiz tijorat banklari xizmatlarining tarkibida forfeyting, trast, kontokorrent xizmatlarining mavjud emasligi;

- respublikamiz tijorat banklarida faktoring, forward, andarrayting xizmat turlari bo'yicha operatsiyalar hajmining kichikligi.

4. Respublikamizda banklarning axbarot texnologiyalari orqali xizmat ko'rsatish tizimidagi kamchiliklar:

- internet tezligining pastligi;
- internetning bir maromda ishlamasligi;
- banklar tizimida axbarot almashishdagi uzilishlar yoki filiallar orasidagi aloqalarning yaxshi emasligi

5. Aholi o'rtasida bank tizimi haqida, ular taklif etayotgan xizmatlar haqida aholining o'rta qatlami orasida yetarli ma'lumot shakllanmaganligi va boshqa misollarni ham keltirib o'tsa bo'ladi.

Bugungi kunda har bir kunimiz mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishida muhim omil bo'luvchi yangiliklarga boy bo'lmoqda, jumladan, jahon bank-moliya tizimining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida iqtisodiyotning muhim tarmog'idan biri hisoblangan bank sohasida ham yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

Darhaqiqat, tijorat banklari tomonidan axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ko'rsatilayotgan barcha xizmatlarning tezkorligi, sifati va shaffofligi bugungi kun talabidir. Endilikda an'anaviy bank xizmatlari o'rnini to'la egallayotgan zamonaviy masofaviy bank xizmatlarining turli ko'rinishlari aynan shu tezlik, sifat va ishonchni ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Zamonaviy bank xizmatlari mijozlarga yanada kengroq qulaylik yaratgan holda ularning imkoniyatlari oshirilishiga xizmat qiladi.

### **3.2. Tijorat banklari faoliyatini samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari**

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy,

eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni bartaraf etish, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendensiyalarini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish vazifalarini bajarishda:

-bank tizimida tizimli kamchiliklar va bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishlarini aniqlash, shuningdek, ularning oldini olish;

-bank tizimida iste'molchilari huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ygan kredit tashkilotlariga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilishini ta'minlash;

-bank xizmatlari iste'molchilarining buzilgan huquqlarini tiklashda maslahat berish va ko'maklashishga;

-moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish va bank xizmatlari iste'molchilarining savodxonligini oshirish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratishi zarur. Tijorat banklari esa o'z faoliyatida:

-bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish va bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish;

-bank xizmatlariga bo'lgan talab va o'zini qoplashni inobatga olgan holda bank filiallari va mini-banklari tarmog'ini kengaytirish;

-filiallarning kredit ajratishda bosh banklar bilan qo'shimcha kelishuvsiz mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha huquqlarini kengaytirish tavsiya etilsin.

-tranzaksiyalarning xavfsiz va uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlovchi milliy chakana to'lov tizimini tuzish va rivojlantirish;

-qulay to'lov xizmatlarini yaratish va rivojlantirish;

-naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda



ilgari surish;

-bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, transport, savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida, ayniqsa, hududlarda joriy etish;

-xalqaro to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

-bank tizimi xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or xalqaro tajribadan kelib chiqib xorijiy banklar bilan tajriba almashishni yo'lga qo'yish;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish;

Ta'kidlash joizki, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha to'lovlarni banklardagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bozor kursida chet el valyutasini sotib olish imkoniyatining yaratilishi "yashirin" iqtisodiyotning qisqarishiga va pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari banklar o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish lozim, zero tijorat banklari o'rtasidagi sog'lom raqobat ular tomonidan o'z mijozlariga bank xizmatining lizing, faktoring, forfeyting, kontakorrent, overdraft kabi zamonaviy bank xizmatlari yangi turlarini taklif etish imkonini yaratdi oxirgi yillarda tijorat banklari tomonidan mijozlariga bank kartalari orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun imkoniyat va qulayliklarni yaratish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. 2018-yil 1-may holatiga, tijorat banklari tomonidan 17 460 234 dan ortiqroq bank kartalari muomalaga chiqarildi hamda banklar tomonidan savdo hamda aholiga pullik xizmat ko'rsatadigan korxonalarda 240 004 dan ortiqroq terminallar o'rnatildi.

Banklar faoliyatida yana bir asosiy kategoriya bor bo'lib bu marketing deb nomlanadi. Bankning mijozlar e'tiboriga tushishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda korxonalar va tashkilotlarga o'zlari xohlagan banklarida hisobrakam ochishga ruxsat berilgan bir paytda bank ishi bo'yicha raqobat kengaymokka. Banklarning mijozlarga ko'rsatadigan keng qamrovli xizmatlarining shakllanishi va rivojlanishi

bir qator tamoyillar ga asoslanadi; bank strategiyasining shakllanishi, tasirchanligini aniqlash, xizmatlarni sotish, bozorni tadqiq etish, kadrlar siyosati va boshqalar.

Bank sohasida marketingning xususiyatlari eng avvalo bank maxsulotining o'zi xosligidan kelib chiqadi. Bizning iqtisodiy adabiyotlar va amaliyotda bank mahsuloti atamasi bank ishiga o'tish jarayonida paydo bo'ldi. Bu atama bank tomonidan ko'rsatilgan ixtiyoriy xizmat yoki bajargan operatsiyani ifodalaydi.

Tovar va xizmatlarni sotish bozor sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan ixtiyoriy tashkilotning asosiy vazifasidir. Busiz biznes albatta barbod bo'ladi. Bank boshqaruvi va uning barcha jihalari faoliyatining maqsad mijozlarni jalb etish, o'z xizmatlarni sotish sohasini kengaytirish, bozorni egallash, olinayotgan foydani oshirishdan iborat. Shundan so'ngi yillarda mazmuni va maqsadi, moliya bozoridagi raqobat bank va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgarishi tufayli o'zgarib borayotgan bankning marketing xizmati katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda har bir bank rahbari va mutaxassisi marketing bo'yicha mutaxassis bo'lmog'i lozim. Raqobatda yutish uchun banklar bank xizmatlarining eng keng qamrovli yig'indisini taklif etishlari lozim. Endi ular bozor faoliyati asosi sifatida o'z e'tiborlarini mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratishadi.

Marketing - yaxshi tayyorgarlik, chuqur va xar tomonlama tahlil, bankning boshliqlaridan tartib qo'yi zanjirlarlariga aktiv ishni talab etuvchi bank strategiyasi va falsafasidir. Marketing yondashishi bankni birinchi navbatda o'z mahsulotlariga emas, balki mijozlarning real ehtiyojlariga e'tibor berishni tala etadi. Shu sababli bozorni chuqur o'rganish, mijozning o'z xoxish ehtiyojlarini taxlili etish suraladi. Bank xizmatchisi moliyaviy mahsulotlarni sotuvchisiga aylanadi. Har bir mijoz bilan muloqot jarayonida u moliyaviy xizmatlarining ma'lum bir shakllarini aniqlashi, har bir shartnomaning kerakligini va qulayliklarini tushuntirishi lozim. Demak bank marketingini, mijozlarning real ehtiyojlarini hisobga olsak holdagi bank tomonini eng qulay bank maxsulotlarini izlash va ishlatishdan iborat.

Mijozlarni moliyaviy holati tahlili va shu asosda omonatlarni jalb etish imkoniyatlari, bank faoliyatida o'zgarishlarni kiritishga qaratilmog'i lozim,

xozirdan korxonalar va tashkilotlarni xohlagan bankdan hisob varaqa ochish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitida bank ishida raqobat kuchayadi. Marketing yangi mijozlarni jalb etishi uchun sharoitlarni ta'minlash, mijozlarni shu bankdan hisob varaqa ochishga jalb etish uchun yangi xizmat turlarini tashkil etishga yo'naltiriladi. U bank sohasida integratsiyalash markazi rivojlanmoqda, nafaqat omonatchilar sonini oshirishga, shu bilan birga ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgandir. Bank sohasida marketingni xususiyati shundan iboratki tijorat banklari nafaqat omonatchilarni jalb etishdan, balki jalb etilgan mablag'larni turli birlashmalar, tashkilotlar, korxonalar va aholini kreditlash orqali ishlatishdan manfaatdordir. Bu marketingning tijorat banklari va omonatchilari o'rtasiga munosabatlari bilan bir qatorda tashkilotlar: korxonalar aholiga ssuda shaklida beriladigan kreditlar sohasida ham kompleks rivojlanishini taqozo etadi. Bu ikki sohada marketingning maqsadi turlicha: birinchisida mijozlar omonatchilar sifatida bankka jalb etish bo'lsa, ikkinchisida- bankning kredit resurslarini shunday yo'naltirish kerakki, ularni ishlatuvchilarning bankka ham o'zlariga ham va umuman xo'jalikka eng katta naf tegsin.

O'z navbatida yuqorida keltirib o'tilgan bank tizimi elementlarini qo'llash orqali banklarga bo'lgan ishonch, ular haqida ma'lumot olish uchun zamin yaratamiz. Jahon amaliyotini ko'rib o'tganimizda ham aynan marketing, inovatsiya, konsalting kabi tushinchalarga ham juda ko'p marta duch kelamiz. Chunki hozirgi zamon iqtisodiyoti aynan manashu vositalar orqali rivojlanmoqda. Shuning uchun ham bizning mamlakatimiz nafaqat bank tizimi balki iqtisodiyot tizimi ham shu unsurlarga bog'langan holda olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Zero shu dastaklardan foydalanish bank tizimi istiqbolini belgilab beradi.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiy tizim sharoitida yangi va istiqbolli tizimni joriy qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda faoliyat ko'rsatish eng oily maqsadimiz. Yuqridagi ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz

mumkinki iqtisodiyotni va moliya sohasini rivojlantirishda marketing va inovvatsion texnologiya juda muhim. Ushbu holda quyidagilarni xulosa qilsak bo‘ladi:

1. Turli investorlar o‘rtasida kapitalni qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida qayta taqsimlash jarayoni uchun depozitar xizmatlar kiradi;

2. Moliyaviy maslahatlar va korporativ moliyalar sohasidagi xizmatlar. Bularga korxonalarining birlashuvi, xususiylashtirish, strategik investor izlash, qo‘shma korxonalarini tashkil qilish, bitim amalga oshiriluvchi bozor tahlili, bitimlar va shartnomaviy va huquqiy hujjatlashtirish bo‘yicha informatsion analitik xizmatlar kiradi.

3. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonidagi uzilishlarni yangi texnologiyalar orqali bartaraf etish

4. Tadbirkorlarga erkinliklar berish orqali ularni bank xizmatlariga qiziqishini orttirish.

Moliya tizimida banklar faoliyati samaradorligini oshirishda bank tizimining rivojlanishi nafaqat kredit muassasalarini kapitallashuvi, ishonchning o‘sishi bilan, balki bank xizmatlari kapitalining rivojlanishi bilan ham bir qatorda olib borilishi zarur. Banklar faoliyati qanchalik kengayib, filiallari ko‘payib borishi bilan ularda yangi ish o‘rinlari ortib boradi va bu orqali real bandlik darajasi ham yuksalishiga shubxa yo‘q.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bank tizimini rivojlantirish va banklar raqobatbardoshligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada qilingan asosiy ishlarning negizida banklar, aholi va maloyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni yaxshilashdir. Zero, aholining bank va moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish - bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlardan biridir. Yuqorida bankning moliya tizimida rolini oshirish masalariga e'tibor qaratib o'tdik. Ular orasida bank marketing ham bo'lib, u birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo'lgan talabni o'rganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bank muammolasiga kiritilgan; faktoring, lizing, ishonch (trast), vositachilik xizmatlari va ularga bo'lgan talabni o'rganib chiqish shular jumlasiga kiradi. Tijorat banklarinig maslaxat xizmati, qimmatbaxo qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir. Ushbu xizmatlar zamonaviy bank tizimida katta ahamiyatga ega chunki hozirgi paytda inovatsiyasiz biror bir sohada o'zgarish qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yilni "Faol tadbirkolik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Bu esa hamma sohada yangi texnika texnologiyalarni joriy qilishga turtki bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganib chiqish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

O'zbekistonda bank tizimi rivojlanib bormoqda, bu jarayonda davlat va xususiy sektor bilan birgalikda olib borilmoqda.

Tijorat banklari faoliyatida rivojlanishlar bilan bir qatorda ba'zi kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Banklar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar tarkibida ko'p hollarda ananaviy bank xizmatlarining turi ko'proqdir, bular omonatlar, kredit xizmatlari. Buning asosiy sababi sifatida moliya bozorining hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Ma'lumki tijorat banklari faktoring va overdraft kabi noan'anaviy operatsiyasini o'tkazadi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallarda keltirilayotgan tijorat banklari yillik hisobati to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu ma'lumotlarda nafaqat faktoring operatsiyasi bo'yicha daromad yoki zarar balki umuman ma'lumot yo'q. Bu omil esa hozirgi davrda respublikamizdagi tijorat banklari faoliyatida bu operatsiyalarning juda sust rivojlanganligi, ba'zi hollarda umuman amaliyotga kiritilmaganligidan dalolat beradi.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda banklarimizda masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi joriy etilgan. Hayotimizning har bir jabhasida bo'lgani kabi bank tizimida ham mazkur masofadan xizmat ko'rsatish tizimini hayotga keng joriy etishga bo'lgan imkoniyatlar oshib bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi asosida to'plangan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bank amaliyotlarining 80 foizidan ko'prog'ini inson o'z uyida yoki ofisida o'tirgan holda kompyuter yordamida amalga oshira olishi isbotlangan. Bunda bank hodimlari va ularning mijozlari ko'radigan manfaat birinchi galda amaliyot jarayonining kechikmasligi (bankka tashrif buyurib, navbat kutish asosida vaqt yo'qotilishi), ya'ni vaqt tejalishi bilan bog'liq. Shunday ekan tijorat banklari tomonidan masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, bu jarayonni ayniqsa mamlakatning chekkaroq hududlarida joriy etish bir oz sustrok amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz moliya tizimida tijorat banklarining o'rni sezilarli darajada rivojlanib kelmoqda. Iqtisodiyotni real sektorini kreditlash bo'yicha qilinayotgan ishlar o'z samarasini bermoqda. Lekin bu kreditlash sodasida ham bir qancha kamchiliklar uchrab turibdi. Masalan kredit bilan bo'ladigan operatsiyalarning ko'p vaqt olishi va bu sohadagi shaffoflik darajasidagi muammolarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu kabi kamchiliklar korxonalar va aholi iqtisodiy harakatlarini bir muncha cheklab qo'yadi. Shuning uchun ushbu kamchiliklarni kamaytirish va yangi darajadagi bank xizmatlari orqali korxonalariga qulay imkoniyatlar yaratish bosh maqsad sifatida oldinga qo'yilgan.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib , ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib o‘tsak bo‘ladi:

1. Banklar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarning qo‘llanilishi ko‘lamini yanada oshirish va yangi vositalarni joriy etish;
2. Mijozlarning bank tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlariga bo‘lgan talab va istaklaridan kelib chiqib talab yuqori bo‘lgan xizmat turlarini ko‘paytirish;
3. Banklararo munosabatlarni yanada rivojlanitish, xorijiy banklar va investitsiya tashkilotlari bilan aloqalarni kuchaytirish;
4. Bankning ayrim xizmat turlari haqida mijozlarga ma’lumot berish, aktiv marketingni joriy qilish;
5. Bankalar tasarrufida konsultativ xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi markazlar tashkil etish;
6. Jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatishda alohida yondashish;
7. Mamlakatdagi internet tizimidagi uzilishlarni bartaraf etish va tarmoqning doimiy ishlash yuzasidan islohotlar o‘tkazish;
8. Tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni yanada soddalashtirish va kredit berish jarayonini tezlashtirish;
9. Bank xodimlarini ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida chet el tajribasidan kelib chiqqan holda o‘quv seminarlarini sifatini oshirish;
10. Informatsion texnologiyalar rivojlanayotgan bugungi kunda, masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni yanada takomillashrish. Bank tomonidan mavjud masofaviy bank xizmatlari sifatini yaxshilash va ularning turini ko‘paytirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Mazkur taklifalar aynan mamlakatimizdagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish natijisida kelib chiqdi. Bu kabi takliflar hozirgi rivojlanayotgan davlatimiz uchun kerak. Zero, har bir asosli fikr va mulohazalar ma’lum darajada muammoning yechimini keltirib chiqaradi. Shu maqsadda yuqoridagi taklif va xulosalarni keltirib o‘tdik. O‘ylaymizki, berilgan takliflar mustaqil O‘zbekistonimiz kelajagida ahamiyat kasb etadi va moliya tizimida tijorat banklarining o‘rni oshishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Me'yoriy – huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. 39 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun. T. "O'zbekiston". 1995.
3. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati haqida"gi Qonuni. T. "O'zbekiston" 1996.
4. "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 05.04.2002 y. № 360-II.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkachilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi Nizomi, 02.12.1998, 557-son
6. "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom, 2009, 1894-son
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida Qarori 2015-yil 6-iyulda 2693-son
8. "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom 2015 yil 13 iyundagi 14/3-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PQ-2777-sonli "Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartichkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. - №8.(113-modda).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi PQ-2746-sonli "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada



kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. - №6 (71-modda).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi PQ-2768-sonli “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. - №7 (85-modda).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da Qarori 2017-yil 12-sentyabr, PQ-3270-son

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi PQ-1166-sonli “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirishga borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi PQ-1317-sonli “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3620 sonli Qarori.

16. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-fevraldagi “Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 37-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi. PQ-1438-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5177-sonli Farmoni.

20. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini taminlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2008-yil 28-noyabr, PF-4058

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-martdagi PF-2844-sonli qarori. “Tadbirkorlik subektlari va keng aholi qatlamiga mikrokerditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 12 (187-modda).

23. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 3-avgustda 953-son bilan ro‘yxatga olingan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 2000-yil 15-iyunda 476-son bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

24. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2015-yil 5-avgustda 2706-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “Bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi yo‘riqnoma//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015. - №31. – 16-21-b.

25. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va

erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 30-46 b.

26. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 2-martda 905-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 2000-yil 22-fevralda 429-son bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom.

27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2006-yil 21-oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2006-yil 27-dekabrda 1648-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida”gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 565-580 – b.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari**

28. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T: O'zbekiston, 2016

29. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T: O'zbekiston, 2017. - 486 b.

30. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T: O'zbekiston, 2017.

31. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T: O'zbekiston, 2017.

32. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”-T.: “O'zbekiston” 2010 yil

33. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. -T.: O‘zbekiston, 2009. -24 b.

34. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 2008. -368 b.

35. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. Tuzuvchi f.m.mullajanov. -T.: O‘zbekiston, 2005. -528 b.

36. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 2008. -368 b.

37. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-Toshkent: O‘zbekiston. 2011.

### **3. Darslik va o‘quv adabiyotlar**

38. Abdullayeva Sh. Z. “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma “Iqtisod-moliya” Toshkent : 2017 yil. 476 b

39. Abdullaev Y.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma - B.M.: T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. - 576 b.

40. Abdullaeva Sh.Z., Kulliev I.Y. “Bank ishi” fanidan masalalar to‘plami - S.l.: TMI, 2006. - 56 b

41. Abdullayeva Sh. Z., Qoraliev T.M., Ortiqov U.D. “Bank resurslari va ularni boshqarish”. Monografiya./ –T.: “Iqtisod-moliya” 2009.-104b.

42. Abdullayeva Sh. Z., Omonov A.A. “Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish”. O‘quv qo‘llanma./ –T.: “Iqtisod-moliya” 2006.-120b.

43. Abdullayeva Sh. Z., Safarova Z.B. “Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish”. T: “Iqtisod-moliya”.2007. -200 b.

44. Алавердов Р. “Стратегический менеджмент в коммерческом банке” М: Питер, 2005 -350 с

45. Банковское дело: учебник. / Э. Ф. Жукова, Н. Д. Эриашвили. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 576с.

46. Зайцева И.Г. “Банковский маркетинг” Санкт Петербург 2009г - 350 с
47. Исаев А.Р. “Банковский менеджмент и бизнес инжиниринг”-М: ИНФРА –М 2013г -370 с
48. Иода Э.В. “Банковский менежмент” ТГТУ 2002 г -300 с
49. Лаврушин О.И. “Банковское дело”: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О.И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2010. - 594с.
50. Лаврушин О.И. “Денги кредит банки”: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О.И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2010. - 450с.
51. Мирзаев Ф.И. “Банклараро ракобат: моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари” Т: “молия”, 2008й. 360 с
52. Николаева П.Т. «Банковский маркетинг» М: МЭСИ 2007г-455
53. Складенно В.В. “Банковский менеджмент” учебное пособие “ФиС” 2009 г-460с
54. Тулембаева А.Н. «Банковский маркетинг» М: Триумф 2007г. 586с
55. Абдуллаева Ш., Файзуллаева М., Галак О. “Банковский менеджмент и маркетинг”. Учебное пособие./ - Т: “Iqtisod-moliya”, 2007. - 182 с.
56. Лаврушин О.И. “Банковский менеджмент” учебник ФиС, 2009 г. - 550 с

#### **4. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar**

57. “Bozor, pul va kredit” ilmiy-amaliy oylik jurnal. 12/2016 (235) – 39-45 b
58. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-2017-yil yakunlari bo‘yicha hisobotlari.
59. “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” tahliliy jurnal № 626 2017-yil IV chorak yakunlari
60. Basel committee on bankig supervision. International convergence of capital measurement and standards. July 1988. Bank for international settlements.

61. Консолидированная финансовая отчетность в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности и аудиторское заключение 31 декабря 2017 года(Хамкорбанк)

62. “Bank – universal credit institution“ maqolasi 2016-yil 12-dekabr №652 // credits to J. Chilline // Science Direct nashri 753-758-bet. (<http://www.Scopus.com>)

## 5. Internet saytlari

<http://www.cbu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

<http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;

<http://www.imf.org> - Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy sayti;

<http://www.bis.org> - Bank for international settlements;

<http://www.worldbank.org> - The world bank group;

<http://www.cbr.ru> - The central bank of the Russian federation;

<http://www.finance.uz> – Moliyaviy yangiliklar sayti;

<http://www.Hamkorbank.uz> - “Hamkorbank” ATB rasmiy sayti;

<http://www.uza.uz> – O‘zbekiston milliy axborot agentligi;

<http://www.scopus.com> – Xalqaro ilmiy maqolalar va jurnallar sayti;

<http://www.statista.com> - AQSh statistika axborot portal.